جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 4-oktyabr
№ 41(41)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta


“ABADIY YASHAMOQ, KULMOQ ISTAYMAN...”



“...Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek hamda Zarifa Saidnosirovaning farzandlari – Omonbek, Bekjon, Gulrang, Suyunbek shu uyda kamolga yetdi. Oilaning yaxshi-yomon kunlariga guvoh bo‘lgan mazkur xonadon adib tavalludining 75 yilligi munosabati bilan 1980-yilda uy-muzeyga aylantirilgan. Avvalo, Zarifa Saidnosirovaning himmati va jasoratiga tahsin aytmoq lozim...”

(7-sahifada o‘qing).

SIYOSIY QATAG‘ON QURBONLARINI YOD ETISH HAFTALIGI



Mustabid tuzum tomonidan sobiq ittifoqda, xususan, O‘zbekistonda amalga oshirilgan qatag‘on siyosati shu vaqtgacha insoniyat tarixida sodir etilgan qatliomning eng dahshatlisidir. Millionlab fuqarolarning qirib tashlanishi va turli azob-uqubatlarga giriftor etilishi, mamlakatda qo‘rquv, ta’qib va tazyiq muhitining qaror topishiga sabab bo‘lgan davlat miqyosidagi jinoyatdir.

SHAHIDLAR XOTIRASI

va tarixiy adolatning tiklanishi

Sovet davridagi ma’muriy buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo‘ysundirilgan tarixni soxtalashtirish, noto‘g‘ri talqin etishga istiqlol yillarida barham berildi. “Xalq dushmani”, “aksilinqilobchi”, “millatchi”, “quloq” sifatida qoralanib, qatag‘on etilgan vatandoshlarimizning pok nomlari oqlandi. Tarixiy haqiqat va adolatni tiklash bo‘yicha olib borilgan ishlar, eng avvalo, hurriyat yo‘lida jon fido etgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirishga qaratildi.

1999-yil 12-mayda 22 kishidan iborat Mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish komissiyasi tuzilib, poytaxtimizda “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etildi.

(Davomi 4-sahifada).

MUNOSABAT

“O‘QITUVCHILIK KASBLAR ORASIDA ENG ULUG‘IDIR”

Mamlakat ijtimoiy-ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlarning, eng avvalo, ta’lim sohasida ko‘zga tashlanayotgani sir emas. O‘qituvchisini qadrlagan millatning kelajak hayoti farovon bo‘ladi. Biz, mo‘ysafid olim va muallimlar yaqin tarix voqeligiga guvohmiz, u davrlar bilan bugungi kun yangiliklarini taqqoslab, Yangi O‘zbekistonda kechayotgan hozirgi kunimizga shukronalar aytamiz. Zero, keyingi yillarda yurtimizda zahmatkash muallimlar, fidoyi murabbiylarning hurmatini joyiga qo‘yish, ularning faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bu e’tiborni yaqinda bo‘lib o‘tgan “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” bayramida yana bir bor yurak-yurakdan his etib, qalbimiz quvonch va g‘ururga to‘ldi. Shu munosabat bilan o‘tkazilgan anjumanda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’lim-tarbiya sohasida fidokorona ishlab kelayotgan pedagoglarni qutlug‘ kasb bayrami bilan muborakbod etar ekan, biz o‘tmishida ham, bugun ham ustozni otadek ulug‘ deb bilgan, uni hamisha e’zozlagan buyuk, ma’rifatparvar xalqning avlodlari ekanimizga alohida urg‘u berdi. Shuningdek, hayotda har bir ezgulik, har bir kashfiyot va yutuqning zamirida o‘qituvchining mehnati, bardoshi va mehr-muhabbati mujassam ekani xususida so‘zlaganlarida, to‘g‘risi, behad mamnun bo‘ldim.

(Davomi 2-sahifada).



MILLAT FIDOYILARI

“MILLIY ITTIHOD”CHI MAHMUDXON AHMADXONOV

Xalqimiz ozodligi, haqiqat va adolat yo‘lida o‘z jonini qurbon qilgan millat fidoyilarini nomma-nom aniqlash, ularning hayoti, faoliyati, fojiali taqdiri haqida yurtdoshlarimizga ma’lumot berish faoliyatimiz mazmuniga aylanib ulgurgan. Qismat hikoyasi arxiv hujjatlari qatida o‘z tadqiqotchilarini kutib yotgan qatliom qurbonlari bo‘lgan yurtdoshlarimizdan biri Mahmudxon Ahmadxonovdir.



Выписка из протокола № 13-к
Особого Совещания при Народном Комиссаре Внутренних Дел СССР
от 20 февраля 3 1943 г.

СЛУШАЛИ: 278. Дело № 2951/НКВД Узбек. ССР, по обв. АХМЕДХАНОВА Махмудхана-1896 г.р., урож. гор. Коканда, узбек, гр-н СССР.

ПОСТАНОВИЛИ: АХМЕДХАНОВА Махмудхана, за ветскую агитацию- заключить правительно-трудовой лагерь ком на ДЕСЯТЬ лет, считая ср 20 апреля 1942 года.

Узбек.ССР – Ухтижемлаг №-8/9151 от 3.III.43 г.

Нач. Секретариата Особого Совещания при Народном Комиссаре Внутренних Дел СССР

Mahmudxon Ahmadxonovga o‘qilgan hukm.

Mahmudxon Ahmadxonov 1896-yilda Qo‘qon shahrida savdogar oilasida tavallud topgan. Ma’lumoti o‘rta, avval 4 yillik, so‘gra rustuzem maktabida tahsil olgan. 1917-yildan Qo‘qon shahar musulmon mehnatkashlar soveti kotibi, 1918-yilda Qo‘qon shahar kutubxonasi mudiri, 1919-yilda Qo‘qon uyezd-shahar soveti sho‘basida ish yurituvchi, 1919-1920-yillarda Qo‘qon shahar revolyutsion komiteti raisi, 1921-1922-yillarda Farg‘ona oblasti xalq xo‘jaligi kengashi raisi o‘rinbosari, 1922-1923-yillarda Qo‘qon uyezd-shahar revolyutsion komitet raisi, 1923-yilning 6 oyi davomida oblast militsiyasi boshlig‘i o‘rinbosari lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. 1924–1927-yillarda Farg‘ona oblasti xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i, 1927-yildan 1929-yilga qadar O‘zbek davlat nashriyotining Farg‘ona oblasti bo‘limi boshlig‘i vazifasida ishlagan.

(Davomi 5-sahifada).

E’TIROF

“Kunchiqar yurt”, “Samuraylar yurti”, “So‘g‘unlar mamlakati” kabi qadim ta’riflarga o‘tgan asr adog‘ida yana bir qator sifatlashlar qo‘shildi: “Nokia”, “Xonda”, “Nissan” ... Ayni shu yurt olimlari dunyo taraqqiyotini qisqa davrda bir necha asr ilgarilatib yuborgan eng yuqori texnologiyalarni kashf etishdi.

KUNCHIQARGA YETAKLAGAN ILM

Yaponiyani salohiyati bilan zabt etayotgan Zokirovlar

Gap Yaponiya haqida ketayotganini angladingiz. Bir qarashda quruqlikda birorta davlat bilan qo‘shni bo‘lmagan, logistikasi faqat osmon-u suvdan iborat, Yevropa-yu AQSh va dunyoning boshqa ilg‘or davlatlaridan necha ming chaqirim yiroqda joylashgan orol davlatning bu qadar tezkor taraqqiy topishi ertakka o‘xshaydi.

Yaponlar ilm-fanni taraqqiyot mezoni sifatida belgilashdiki, bu jahon tarixida yagona fojia – hududida bir emas ikkita vahshatli atom bombasi portlagan millatni sindira olmagani bir yog‘-u, ularni yana qudratliroq qilishda birlashtirgani bir yoq bo‘ldi.

Bugun ilg‘or texnologiyalar, maktab ta’limi, mutolaa madaniyati borasida “yapon tajribasi” dunyoning ko‘pgina davlatlarida o‘rganilyapti. Faqat o‘rganilib qolmasdan, ulardan ibrat ham olinmoqda.

Mehmondo‘st, bag‘rikeng, g‘oyatda mehnatkash yapon xalqining yana bir tajribasi – ilmi, iqtidori, salohiyati bor insonlarni har tomonlama qo‘llash, rag‘batlantirish, ularga kerakli shart-sharoitlarni yaratib berishda ko‘rinadi. Misol deysizmi, mana!

Xorazmning chekka Hazorasp tumanida tug‘ilgan to‘rt aka-uka Zokirovlar kunchiqar yurtda o‘qib, ishlab, tadbirkorlik bilan shug‘ullanib, kelajagini o‘zlari yaratayotgan yurtdoshlarimizdan.

Oilaning to‘ng‘ich farzandi Sherzod Nagoya universitetini tugatgach, iqtidori bois nufuzli “UHIQLO” kompaniyasiga ishga qabul qilingan.

(Davomi 3-sahifada).

TADQIQOT

AFG‘ONISTON NAVOIYSHUNOSLIGI

yoki 1001 bino – Navoiyning niyati

Jahon xalqlari adabiyotida buyuk tafakkur sohibi sifatida maydonga chiqqan adiblar o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan zaminni ham tarix sahifasiga muhrlaydilar. Ijodkorni kamolotga yetkazgan muhit, tuzum, sharoit shaxs bilan birga o‘rganilar ekan, o‘z davri va keyingi zamonlarda ham ular qoldirgan merosni saqlash, o‘rganish, ijodiy an’analarini davom ettirish mas’uliyati o‘sha xalq, millat zimmasiga katta vazifa yuklaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida buyuk o‘zbek shoiri va davlat arbobi Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bo‘lgan qiziqish bemisl darajada. Alisher Navoiy asarlarida aks etgan yuksak tafakkur va badiiy mahorat turkiy xalqlar adabiyotini ham xalqaro maydonga ko‘tardi. Bugungi kunda Afg‘oniston davlati hududida yashayotgan o‘zbek qavmlari adabiyoti tarixi, Alisher Navoiy asarlarining manbalari, shoirning bunyodkorlik faoliyatini ham kengroq o‘rganish zarur. Xususan, XV asrda Alisher Navoiyning hozirgi Afg‘oniston hududida olib borgan keng ko‘lamdagi bunyodkorlik ishlari haqidagi manbalarni tugal tadqiq qilish lozim.

(Davomi 7-sahifada).



“O‘QITUVCHILIK KASBLAR ORASIDA ENG ULUG‘IDIR”





Oqil SALIMOV,
akademik

Boshlanishi 1-sahifada.

Hurmatli Prezidentimizning “Ta’lim – sohalar ichida eng dolzarbi, maktab – eng muhimi bo‘lsa, o‘qituvchilik kasblar orasida eng ulug‘idir”, degan fikrlaridan hamon to‘lqinlanib o‘tiribman.

Xususan, “Shaxsan men o‘qituvchi deganda – o‘zim uchun aziz va qadrli bo‘lgan zotlarni, yuz-ko‘zidan nur yog‘ilib turadigan mo‘tabar insonlarni tasavvur qilaman. Samimiy va mehribon, shu bilan birga, talabchan ustozlarimni, ularning darslari, hayotiy saboqlarini hamisha sog‘inaman. Jamiyatimizdagi eng jonkuyar, vatanparvar, xalqparvar insonlar, zamonamizning eng ilg‘or kishilari – bu avvalo, ustoz va muallimlardir. Shu sababli xalqimiz o‘zining eng katta boyligini – farzandlari tarbiyasini sizlarga ishonib topshiradi. Hayot ma’nosi, o‘zgarishlar mazmunini chuqur anglab, boshqalarga tushuntiradigan, odamlarni ezgulikka, yangi marralarga ruhlantiradigan ham siz, muhtaram ustozlardir”, degan dil so‘zlari barcha ustoz va murabbiylarga kuch-quvvat bag‘ishlaydi, albatta.

BUNYODKOR AVLOD TARBIYACHILARI

Respublika Prezidenti ustoz va murabbiylar insonlarni ezgulik va yangi marralar sari boshlashini alohida ta’kidladi: “Barchamiz yaxshi bilamiz, insonning ongi, dunyoqarashi o‘zgarmasa, jamiyat o‘zgarmaydi. Jamiyat o‘zgarmasa, taraqqiyot ham bo‘lmaydi. Lekin odamlarning tafakkurini, shu asosda butun jamiyatni kim o‘zgartira oladi?

Yangi O‘zbekistonning yangi Beruniylari, yangi Xorazmiylari, ibn Sinolari, Farg‘oniylarini kim kamolga yetkazadi? Albatta, bunday ezgu va ulug‘vor vazifani, tom ma’nodagi tarixiy missiyani ado etishga faqat siz – ustoz va murabbiylar qodirsiz. Bugun azamat yoshlarimiz jahon maydonlarida o‘z kuchi va bilimi, iste’dodi bilan ulkan marralarni qo‘lga kiritayotganini ko‘rib, quvonib turibmiz. Bu g‘alabalar, avvalo, ustoz-murabbiylarning fidokorona mehnati samarasi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Shu bois sizlarning sha’ningizga, muhtaram ustozlarimiz sha’niga qancha yaxshi gaplarni aytsak, go‘zal ta’riflar bildirsak, qanday ezgu tilaklarni yo‘llasak, o‘ylaymanki, bu ham adolatli haqiqat bo‘ladi”.

Men Prezidentimiz nutqini tinglaganimda ko‘pincha yuqorida tilga olingan “adolat” va “haqiqat” so‘zlariga zehn solaman. Chunki inson bolasi tabiatan hamisha ayni shu ikki tushunchaga ehtiyoj sezadi. Jamiyatdagi eng adolatli, haqgo‘y, xolisnazar, fidoyi, tashabbuskor insonlarni ham o‘qituvchilar tarbiyalab voyaga yetkazadi. Davlatimiz rahbari bu haqiqatni ochiq aytganida yig‘ilish ahlining barchasi hayajonga tushgani ham haqiqatdir.

Aslida ustoz va murabbiylar mehnatining ulug‘lanishi, ularga nisbatan e’tibor ko‘rsatilishi nafaqat shu soha xodimlarini, balki barchamizni quvontirdi. O‘zbekistonning dunyo mamlakatlari orasida har jihatdan yuksak bir maqomga ega bo‘lishini va yurtimiz har sohada jahonning eng ilg‘or davlatlari qatorida turishini har birimiz chin ko‘ngildan xohlaymiz. Bu ezgu niyat jadid bobolarimizning ham orzusi edi. Shu bois ular, eng avvalo, maktablarda islohotlarni amalga oshirishdi. Yoshlarning ruhiy-ma’naviy tarbiyasi yo‘lida jon fido qilishdi. Tarbiya va maktablar islohotiga bugun ham eng muhim, hayot-mamot masalasi sifatida qaralmoqda. Ma’ruzada alohida ta’kidlanganidek: “Bosh maqsadi yangi zamon kishisini, Yangi O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalash bo‘lgan ta’lim va tarbiya sohasi uchun bu vazifa alohida ahamiyat kasb etadi. Vatan va xalq manfaati uchun mardona kurashadigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, bilimli va bunyodkor avlodni kim tarbiyalaydi? Albatta, sizlar – zahmatkash va jonkuyar ustozlar. Buning uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zi huquqiy, ijtimoiy va moliyaviy tomondan himoya qilingan va yetarli ta’minlangan bo‘lishi kerak. Shundagina u o‘zining chinakam insoniy va kasbiy fazilatlarini amalda namoyon qila oladi”. Jadid bobolarimizning ezgu niyatlari, orzulari shu yo‘sinda, bizning ko‘z o‘ngimizda hayotiy haqiqatga aylanayotganiga bugun barchamiz guvohmiz, azizlar!

MUAMMO VA MAS’ULIYAT

Muallimlik – nihoyatda zahmatli, mashaqqatli kasb. Buni ayni sohada ishlagan va shu kasb nonini yeb ko‘rgan insongina chuqur anglaydi. Men davlatimiz rahbari mehnat faoliyatini dastlab o‘qituvchilikdan boshlaganini juda yaxshi xotirlayman. Shu bois bu sohaning juda ko‘p ijobiy qirralarini ham, muammoli jihatlarini ham yaxshi biladilar. Mana sakkiz yildirki, ta’lim bilan bog‘liq biron bir masala u kishining e’tiboridan chetda qolgani yo‘q. Ta’lim tizimidagi og‘riqli nuqtalarni butun vujudi bilan his etgani uchun ham Prezident quyidagi fikrlarni bayon qildi: “Yangilangan Konstitutsiyamizda dunyodagi mo‘tabar shaxs – o‘qituvchi maqomini alohida mustahkamlash, bu kasbni jamiyatdagi eng obro‘li ishga aylantirish mening necha yillik orzuyim, kerak bo‘lsa, armonim edi. Chunki o‘zim ham ko‘p yillar shu sohada ishlaganman. O‘qituvchi mehnati qanchalik og‘ir va mashaqqatli ekanini yaxshi bilaman. Afsuski, ana shunday sharafli va olijanob kasb egalariga biz yaqin o‘tmishda yetarlicha hurmat va e’tibor qarata olmadik. Yana bir bor aytaman: qancha islohot qilmaylik, birinchi navbatda o‘qituvchining bilimi va kasb mahoratini oshirmas ekanmiz, sifatli ta’limni ta’minlay olmaymiz. Bu – ayni haqiqat. Afsuski, bugungi kunda, davlat ta’lim muassasalarida 46 ming nafar (7 foiz), xususiy tashkilotlarda esa 38 ming nafar pedagog 5 yil davomida malaka oshirmagan.

Bu yil attestatsiya jarayonlari shaffof bo‘lishi uchun sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar qo‘llandi. Natijada 198 ming o‘qituvchidan 21 ming nafari (10 foiz) malaka bo‘yicha yetarli ball to‘play olmadi. Afsuski, bunday holatlar o‘quvchilarning bilimiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Joriy yil bitiruvchilarning 130 ming nafari (30 foizi) oliy ta’lim dargohlariga kirishda eng past – 57 ball ham to‘play olmagan. Bu barchamizni tashvishga solishi kerak”.

Albatta, ushbu gaplar achchiq, lekin ayni haqiqatdir. Ushbu muammolar barcha ziyolilar zimmasiga o‘ta mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi. Chunki ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, ta’lim-tarbiya ishi “yo hayot, yo mamot masalasidir”.

“YIL O‘QITUVCHISI” – SHARAFLI MARRA

Xalqning dardi, uning kelajagi bilan yashaydigan davlat rahbarining o‘z orzusi, maqsadlari bo‘ladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ham ta’lim tizimini rivojlantirish borasida o‘z orzulari, maqsadlari bor. Yig‘ilishda shular haqida ham so‘z bordi: “Shaxsan men ko‘pdan buyon “Ustozga ehtirom” nomli katta bir kitob yaratilib, ma’naviy hayotimizda jiddiy voqea bo‘lishini orzu qilaman. Ta’kidlash kerakki, yuksak mahoratli, jonkuyar va talabchan o‘qituvchilar – bular ham xalqning, millatning noyob boyligi. Ularning har biri takrorlanmas shaxs. Ularning mashaqqatli, mas’uliyatli mehnati eng yuksak baho va rag‘batga munosib. Shu bois “Yil o‘qituvchisi” tanlovi o‘tkazilib, 208 ta tuman va shahardan g‘olib bo‘lgan o‘qituvchilarga Prezident sovg‘asi sifatida uy-joy beriladi”. O‘qituvchi xizmatining ham ma’naviy, ham moddiy tomondan qo‘llab-quvvatlanishining amaldagi isbotini mana shu e’tibordan ham anglash qiyin emas.

YANGI BOSQICH YO‘NALISHLARI

Davlatimiz rahbari mazkur yig‘ilishda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasini yanada rivojlantirish, o‘qituvchi va murabbiylarning malakasini oshirish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator ustuvor vazifalar belgilab berdilar.

Birinchi yo‘nalish. Abdulla Avloniy nomidagi institut pedagoglarning kasb mahoratini oshirishga mas’ul bo‘ladi. Institutning 12 ta hududiy markazini zamonaviy qiyofaga keltirish va jihozlash uchun yaqin 3 yilda byudjetdan har yili 50 milliard so‘m ajratiladi. Malaka oshirishda vazirlik – malaka oshirish markazi – maktab va bog‘chani bog‘laydigan vertikal tizim yo‘lga qo‘yiladi. Bundan tashqari, joylarda 1 300 ta tayanch maktab va 200 ta bog‘cha tanlab olinib, yosh pedagoglar uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tashkil etiladi. Buning uchun yetakchi o‘qituvchilarning ish haqiga 20 foiz ustama qo‘shiladi.

Ikkinchi yo‘nalish. Muallimlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning mehnatini rag‘batlantirish ishlari kelgusida ham izchil davom ettiriladi. Yanagi o‘quv yilidan xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini berish yo‘lga qo‘yiladi. Sinovlarda 86 va undan yuqori ball to‘plagan pedagoglarga qo‘shimcha 70 foiz ustama to‘lanadi.

Har yili sanatoriy va dam olish maskanlariga yuboriladigan o‘qituvchilar soni 2 barobar oshiriladi.

Bir yil oldin maktab direktorlarini o‘qitish tizimi joriy etilgan edi. Natijada bugungi kunda ularning 1 206 nafari menejerlik sertifikatiga ega bo‘ldi. Hozir ana shu direktorlarga o‘rtacha 3 million so‘mdan ustama berilmoqda. Endi bu amaliyot 2025-yil 1-sentyabrdan bog‘cha mudiralariga ham tatbiq etiladi va ularga har oyda 30 foizgacha qo‘shimcha ustama to‘lanadi.

Bilimdon va jonkuyar o‘qituvchilar xalqning noyob boyligi ekanligi ta’kidlanib, ular haqida “Ustozga ehtirom” nomli kitob va filmlar yaratish zarurligi ham qayd etildi.

Uchinchi yo‘nalish. Aholi o‘sishi tufayli yiliga maktablarda 120 mingta, bog‘chalarda 30 mingta qo‘shimcha o‘ringa talab yuzaga kelmoqda. Kelgusi yili davlat byudjetidan ajratiladigan 3 trillion 200 milliard so‘m hisobidan 375 ta maktab va 97 ta bog‘cha rekonstruksiya qilinadi va yangilari quriladi.

Bundan tashqari, Islom taraqqiyot banki va OPEK jamg‘armasining 50 million dollar mablag‘i doirasida kelgusi 4 yilda 200 ta xususiy bog‘cha qurilib, yangi 30 mingta o‘rin yaratiladi.

Yangi yildan boshlab xususiy sektorda o‘quvchi o‘rinlarini ko‘paytirish uchun maktab ochadigan tadbirkorlarga 20 milliard so‘mgacha kredit ajratiladi. Kredit foizining asosiy stavkadan 1,5 barobar oshgan qismi byudjetdan qoplanadi. Shuningdek, yangi quriladigan xususiy maktab binolari uchun kommunal xarajatlarning 50 foizi 5 yil muddatgacha byudjetdan to‘lab beriladi. Qolaversa, tadbirkorlar o‘z hisobidan maktab qursa, unga ketgan xarajatlar foyda solig‘idan ikki yil davomida teng ulushlarda chegirib tashlanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish. Ta’limda sifat va raqobatni ta’minlash uchun raqamlashtirish darajasi oshiriladi.

O‘tgan 5 yilda 13 500 dan ortiq sinfxona 200 mingta zamonaviy kompyuter bilan ta’minlandi. Kelgusi yili yana 2 mingdan ziyod kompyuter sinflari yangilanadi, bunga byudjetdan 400 milliard so‘m beriladi. Ana shu kompyuterlarga elektron ta’lim kontentlari yuklanib, bolalar uchun mustaqil ta’lim olish imkoniyati oshadi. O‘quvchilar murakkab konsepsiyalarni oson o‘zlashtirishi uchun aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha virtual laboratoriyalar tashkil etiladi. Yangi o‘quv yilidan boshlab bunday laboratoriyalar har bir viloyatda 10 tadan maktabda tashkil qilinadi. Shuningdek, maktab tizimida o‘qituvchi o‘z imkoniyati va yutuqlarini, yangi ishlanmalarini e’lon qilishi uchun yagona onlayn platforma yaratiladi.

Singapurlik 16 nafar malakali ekspert yurtimizda matematika va tabiiy fanlar o‘qituvchilarining kasb mahoratini oshiradi. Pedagoglar bir yil davomida sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformasida bilimlarini muntazam sinovdan o‘tkazadi.

Xususiy bog‘chalardagidek, 6 800 ta davlat bog‘chalarida ham davomat, to‘lovlar, oziq-ovqat xarajatlarini shakllantirish to‘liq raqamlashtiriladi.

Beshinchi yo‘nalish. Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablar tajribasi ommalashtiriladi.

Bu yo‘nalishda yana mingta umumta’lim muassasasida Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablardagi baholash tizimini joriy etish boshlandi. Hokimliklarga ularning binosini ta’mirlash va zarur darajada jihozlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, oliy ta’lim va malaka oshirish tizimida yagona uzviy zanjirni yo‘lga qo‘yish uchun pedagogik ta’lim klasterlari tashkil qilinadi. Ular tajriba-sinov tariqasida dastlab Andijon va Buxoro shaharlarida barpo etiladi.

Oltinchi yo‘nalish. Iqtidorli yoshlarni selektsiya qilish tizimi yangi bosqichga olib chiqiladi. Buning uchun xalqaro darajada fan olimpiadalariga tayyorlash markazi tashkil etiladi.

Rag‘batlantiriladigan xalqaro fan olimpiadalari soni 18 tadan 22 taga yetkaziladi. Bunda nufuzli xalqaro olimpiadada oltin medal olgan o‘quvchiga 170 million so‘m, kumush medal uchun 102 million so‘m, bronza uchun 68 million so‘m mukofot puli beriladi. Shu bilan birga, ana shu o‘quvchilarning ustozlari 50 milliondan 150 million so‘mgacha mul mukofoti bilan taqdirlanib, ularga bir yilda 100 foizlik ustama olish imkoni yaratiladi. Ilk bor xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan o‘quvchilar jamoasining rahbarlarini ham rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Prezident pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar uchun Abdulla Avloniy nomidagi stipendiyani tashkil etish tashabbusini bildirdi.

Yettinchi yo‘nalishda ta’limning ajralmas qismi bo‘lgan tarbiya va odob-axloq masalalariga e’tibor qaratildi. Shu maqsadda Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti yangidan tashkil etildi.

Hozirgi paytda yoshlarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirish, ota-onalar, o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun tarbiyaga oid raqamli kontentlar yaratish muhimligi ta’kidlandi. Shuningdek, bu borada teatr va kino san’atidan foydalanish, yoshlar ijodini qo‘llab-quvvatlash, ular orasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, kitobxonlikni yanada kengaytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

YANGI MARRALAR SARI

Muloqot davomida oliy o‘quv yurtlarining rektorlari ham oliygohlarni rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan professor-o‘qituvchilar uchun sihatgoh yo‘llanmalari sonini 50 foizga oshirishlari lozimligi aytildi. “Men qiziqib



ko‘rdim, maktab direktori, uning boshqaruvchilik mahorati haqida bizda muhim qo‘llanma bo‘ladigan kitoblar yo‘q ekan. Vaholanki, yurtimizda ta’lim va tarbiyaning taqdiri ana shu insonlar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Direktorlik qanchalik murakkab vazifa ekanini ba’zi ota-onalar bilmaydi ham. Chunki targ‘ibot kam. Buning o‘rniga shu paytgacha maktab direktorlarini faqat majlisga chaqirib, ularga har xil vazifalarni yuklab keldik”. Prezidentning bu gapi maktabni, muallimni va ayni damda maktab rahbari bo‘lgan direktorlar mehnatini naqadar chuqur bilishini ko‘rsatadi, albatta. Yil davomida tinimsiz mashaqqatli mehnatlari evaziga ularning o‘z vaqtida dam olishlari uchun imkoniyat va shart-sharoit yaratilishi, ularning mehnati qadrlanishi lozim.

Bundan buyon Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tegishli mutaxassislarni jalb etgan holda, maktab direktorlari haqida ana shunday kitob (qo‘llanma) tayyorlaydigan bo‘ldi.

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti endilikda tarbiya sohasidagi milliy an’analarni o‘rganish, qayta tiklash va zamonaviy ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimini joriy qilish yo‘nalishidagi faoliyatini yanada kuchaytirishi zarur.

“Hech kimga sir emas, bugungi kunda tarbiya sohasida ilgari ko‘rilmagan jiddiy xavf-xatarlarga duch kelmoqdamiz. Takror aytishga to‘g‘ri keladi: yoshlarni ota-ona, muallimlar emas, ko‘proq ijtimoiy tarmoqlar, turli gadjetlar, qo‘l telefonlari tarbiyalamoqda. Oqibatda ayrim o‘g‘il-qizlarimiz salbiy ta’sirlar tuzog‘iga tushib qolmoqda. Bu borada vaziyatni o‘nglash uchun yoshlarimizda g‘oyaviy immunitetni shakllantirishda kattalar ham ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lishi, bolalarimizga ijobiy ta’sir ko‘rsatishlari zarur”. Prezident ta’kidlagan bu yo‘nalish yoshlarning sog‘lom hayot tarzi uchun nihoyatda muhim.

TALABALAR UCHUN YANA BIR RAG‘BAT

Davlat rahbari xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan yoshlarni tantanali kutib olib, ularni ham qahramonlar sifatida e’zozlab, xalqqa tanitish kerakligini aytdi. Shu maqsadda endi maktablardagi “Iftixor xonalari” va markaziy ko‘chalardagi ko‘rgazma vositalari, ommaviy axborot vositalari orqali g‘olib o‘quvchi va murabbiylar keng targ‘ib etib boriladi. Yozuvchilar uyushmasi esa xalqaro fan olimpiadalari ishtirokchilari haqida ham sermazmun kitoblar nashr etadi.

Ta’kidlanishicha, bu yil 14 ta maktabda pedagog kasbiga qiziqqan 10-11-sinf o‘quvchilari uchun alohida sinflar tashkil etilgan bo‘lib, unda 350 nafar o‘quvchi qamrab olingan.

Kelgusi o‘quv yilidan esa yana 60 ta maktabda, jumladan, 10 ta ixtisoslashgan maktabda mazkur turdagi sinflar tashkil etiladi. Bu sinflarni bitirganlar agar oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirsa, 2-kursdan maktabga borib kasbiy mahoratini oshirishi mumkin bo‘ladi. Alohida qobiliyatga ega talabalarga esa dars o‘tgani uchun oylik maosh ham to‘lanadi.

HAYOTIY DA’VAT

“Bizning dunyodagi eng aziz va mo‘tabar xazinamiz – bu umrimiz guli va mevasi bo‘lgan farzand va nabiralarimizdir. Hech shubhasiz, barchamiz ularning kelajakda baxtli va saodatli insonlar bo‘lib yashashini istaymiz. Lekin bunga erishish oson emas. Ayniqsa, bugungi tahlikali davrda ezgu maqsadlarga yetish uchun insonga hushyorlik va ogohlik, qat’iy iroda, yuksak bilim va keng dunyoqarash, zamonaviy kasb-hunarlar har qachongidan ham zarur. Ta’lim va tarbiya – butun jamiyatning muqaddas ishidir! Barchamizdan doimo hamjihatlik, faollik va fidoyilikni talab etadigan hayot-mamot masalasidir. Ezgulik, bilim va ma’rifatni qurol qilib, jaholat va yovuzlik yo‘lini to‘saylik! Farzandlarimizning baxti, yorug‘ kelajagi uchun, jonajon Vatanimiz istiqboli uchun mustahkam poydevor yarataylik!”

Xulosa qilib aytganda, hurmatli Prezidentimizning O‘qituvchi va murabbiylar kuni bayrami munosabati bilan o‘tkazgan yig‘ilishida o‘tgan davrda bu yo‘nalishda bajarilgan ishlarni sarhisob qilish bilan bir qatorda, ushbu soha mas’ullari, murabbiylar oldiga yangi, ulkan vazifalar qo‘yildi. Bu vazifalarni o‘z vaqtida chin yurakdan bajarish mamlakatning har bir chinakam vatanparvar ziyolisi uchun sharafdir.

KUNCHIQARGA YETAKLAGAN ILM

Yaponiyani salohiyati bilan zabt etayotgan Zokirovlar



Boshlanishi 1-sahifada.

Sherzod millatsevar yigit. Yurtimizni o‘zi yashab, ishlab yurgan manzilda tanitish harakatiga kirishgan. Bunda unga turmush o‘rtog‘i Zarina Ahmedova yaqin yordamchi. Zarina to‘rt nafar farzandini tarbiyalash bilan bir vaqtda, Nagoyada “Nihol” nomli maktabga asos solib, o‘quvchilarga o‘zbek tili va madaniyati tarixidan saboq berib keladi. Shu o‘rinda yaponlar jahon tamadduni o‘choqlaridan biri hisoblanmish yurtimiz tarixiga, madaniyatiga g‘oyatda qiziqishlarini eslatish joiz. Biror xalqning tarixi, madaniyatini o‘rganish uchun avvalo shu xalqning tilini o‘rganish kerakligini yaponlar yaxshi biladi.

Bekzod Zokirov Yaponiyada nufuzi jihatdan birinchi, dunyoda kuchli yuztalikka kiradigan Tokio universitetida ilmiy ish yoqlagan. Bekzodning yangicha texnologiyalar bo‘yicha yoqlagan ilmiy ishi soha mutasaddilari va olimlar tomonidan e’tirof etilgan.

Bekzodning orzusi O‘zbekistonda xususiy universitet ochish va ilmga chanqoq yoshlarga hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida yordam berish. U ochmoqchi bo‘lgan universitetda Yaponiya texnologiyalari o‘rgatilishini e’tiborga olsak, yosh olimning niyatlarini qo‘shqo‘llab quvvatlaymiz. Hozirda Bekzod shu ezgu orzusini amalga oshirish harakatida.

Oilaning yana bir farzandi Bunyod ham Yaponiyada tahsil olgan va o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan. Bunda biznes olimpi cho‘qqisiga allaqachon erishgan yaponlardan o‘rganganlari asqatmoqda. To‘g‘risini aytsak, yaponlar bilan bu borada raqobatga kirishish osonmas. Ammo, Bunyod o‘z salohiyati, tajribasi bilan kunchiqar yurt tadbirkorlari orasida munosib o‘rin egallashiga ishonamiz.

Kenja o‘g‘il Dilshodbek ham Yaponiyada universitetni tamomlagach, akasi Bunyod kabi biznes sohasini tanladi. U yengil avtomobillar savdosi bilan shug‘ullanadi. Jon boshiga avtomobillar soni bo‘yicha dunyoda yetakchilar qatorida turadigan Yaponiyada yengil mashinalarga xaridor topish oson ishmas. Buning uchun yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan korxonalar bilan hamkorlik qilish, marketing xizmatini jahoniy andozalar darajasiga ko‘tarish kerak. Bu jarayonda xaridorlar bilan muomala madaniyati birinchi o‘rinda turadi. Muomala uchun esa tilni mukammal bilish kerak. Ayni paytda Dilshodbek “Global silkroad Inc” kompaniyasida ham ishlaydi. Bu kompaniya quruq mevalar importi bilan shug‘ullanadi. Ma’lumki, qulay iqlimi tufayli yurtimizda bog‘dorchilik juda rivojlangan. Yurtimizda yetishtirilgan quruq mevalar eksporti yildan yilga oshmoqda. Dilshodbek shu borada yaponiyalik hamkorlar bilan yurtimiz bog‘bonlari o‘rtasida o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini o‘tayotir.

Chekka Xorazmda tug‘ilib, voyaga yetgan to‘rt nafar aka-ukaning Yaponiyaga borishi, u yerdagi eng nufuzli oliygohlarda tahsil olib, so‘ng o‘zlari sevgan soha bilan shug‘ullanishlari, biznesni yo‘lga qo‘yishlari o‘z-o‘zidan bo‘lmagan. Ular, avvalo, o‘rta maktabda yaxshi o‘qiganlari, keyinchalik ota-onalarining qo‘llashlari orqali til o‘rganish uchun o‘quv markaziga qatnaganlari, oxir, oqibatda ilmda, biznesda o‘zlari orzu qilgan marralarni zabt etishlariga mustahkam poydevor bo‘lgan. Yana deng, ular yapon tilini Xorazmda emas, olti yuz chaqirim uzoqda joylashgan Qashqadaryoda o‘rganishgan.

Shu o‘rinda Zokirovlar oilasiga qoyil qolmasdan ilojimiz yo‘q. Ular o‘z mehnatlari evaziga topgan mablag‘larini mashinalar olish, imoratlarini hashamli qilishga emas, farzandlari ilm olishlari, til o‘rganishlariga sarflashgan. (Keyinchalik farzandlari tufayli shu ne’matlarga erishganlar ham.) Zero, “Eng yaxshi investitsiya bu ta’limga, farzandlar ilm olishiga yo‘naltirilgan sarmoya”, degan qimmatli ibora bor. Shu iboraning naqadar haq ekanini Zokirovlar oilasi misolida ko‘ramiz. Yana bilamizki, ayrim tadbirkorlar, ayniqsa, do‘kondorlik bilan mashg‘ul oilalar farzandlari ta’lim olishiga e’tiborsizlik bilan qarashadi. “Ming o‘qiganing bilan shahar olib berarmiding! O‘qigan odam bilan do‘konchining daromadini solishtir!” deya falsafa so‘qishadi ham...

Bekzod bilan telefon orqali bog‘landik. U poytaxtda ekanligi uchun uzr so‘radi va telefonda ota-onasi, inilari haqida qisqacha to‘xtaldi:

“Otam Hikmat Zokirov va onam Shodmonjon Egamberdiyeva yurtimizda yaratilgan sharoitlar tufayli birinchilardan bo‘lib tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga ahd qilishgan. Ular maktabda o‘qiganimizda bizlarni qattiqqo‘llik bilan puxta bilim olishga undashdi. Yettinchi-sakkizinchi sinflarda o‘qiyotgan davrimizda xorijiy tillarni o‘rganishimiz zarurligini uqtirishdi. Katta akam yapon tilini tanladilar. Keyinchalik bizlar ham akamga ergashdik. Sherzod akam 2007-yili Yaponiyadagi Nagoya universitetiga o‘qishga kirdi. Bizlar ham ulg‘aygach, u kishining yo‘lini tutdik va o‘ylaymanki, kam bo‘lmadik. Hammamiz hayotda o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarimiz amalga oshishi, yurtdoshlarimizga yordamimiz tegishi uchun harakat qilyapmiz. Hayotda bizlar nimaga erishgan bo‘lsak – hammasi mustaqillikdan so‘ng yaratilgan imkoniyatlar – chet ellarga o‘qish uchun yo‘llar ochilgani, ota-onamizning ta’lim olishimizga ko‘rsatgan e’tibori va, albatta, til o‘rganganimiz ortidan deb bilaman”.

...Kunchiqar yurtni o‘z salohiyatlari bilan zabt etayotgan to‘rt og‘a-ini haqida ijtimoiy tarmoqlarda yoyinlangan qisqa lavhadan xabar topdik va ularning oilasi haqida mufassalroq ma’lumot olish maqsadida viloyat Yoshlar ishlari agentligi mas’ullari bilan bog‘landik. Tezroq ma’lumot olish niyatimizni bilgan mas’ul uzrlandi: “Hozirda xorijiy davlatlarda tahsil olgan va olayotgan viloyatlik yoshlar juda ko‘p. Bizlar ro‘yxatni ko‘rib chiqamiz. Biror soat kutishingizga to‘g‘ri keladi”.

Kutish toqatimizni sinadi, deb o‘ylamang, aksincha quvontirdi. Axir, yoshlarimiz bugun taraqqiy topgan davlatlarning nufuzli oliy ta’lim muassasalarida boshqa millat vakillari qatorida tahsil olayotgan, ilm sohasida ular bilan raqobatga kirishayotgan ekan quvonmay bo‘ladimi?!

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

SO‘Z MULKI



“VATAN! BOR QISMATIM SHU BIR SO‘ZDA HAL...”

Vatan va millat hayotining yuksak va jonli tasviri G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, Mirtemir kabi ulug‘ shoirlarimizning she’rlarida ham mavjud. Lekin ustozlaridan farqli ravishda Abdulla Oripov mavzuning qaltis qirralarini cho‘chimasdan, sovet mafkurasining bir yoqlamalikka rioya qilish talablaridan kechib, yangicha yo‘l tutdi. Bu esa haqiqatda she’riyatimizda hali ravshan ko‘rinmagan jasorat edi. Shoir “O‘ylarim” nomli she’rida “Vatan! Bor qismatim shu bir so‘zda hal”, degan edi. Vatan mavzusini yoritishda Abdulla Oripov ustozlaridan (masalan, tilda, obrazli tasvir va ohang yaratishda) o‘rgangan, lekin u taqlidga yon bermaganidek, takrorga ham yo‘l qo‘ymagan. Buning ham o‘ziga xos sabablari bor, albatta.

Birinchidan, Abdulla Oripov ulkan talant. Talantli shoir esa, qaysi mavzuda qalam tebratmasin, hamisha o‘zining gapini, ya’ni yangi fikr-tuyg‘ularni aks ettiradi.

Ikkinchidan, Abdulla Oripov yurt tarixi va taqdirini o‘zicha mushohada etadi, o‘zicha ko‘radi. Shuning uchun G‘afur G‘ulom, Oybek, Shayxzoda va Mirtemir nigohidagi Vatan bilan Abdulla Oripov tasavvuridagi Vatan ma’lum farqlanishlarga ega. Shu ma’noda Abdulla Oripovning o‘z Vatani bor.

Millat, til, tarix, din tushunchalari bo‘lmasa, Vatan so‘zi o‘z-o‘zicha muhim bir ahamiyat kasb etmaydi. Shoirning dastlabki ijod namunalaridan bo‘lgan “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” she’rini o‘qigan kishi Vatan degan tushunchaning tub mohiyati xalq qismati va haqiqatlari orqali yoritilganligiga iqror bo‘ladi. Uning:

...Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo‘lsa kechirma aslo!

– degan satrlari xuddi qasamday yangraydi. Sovet zamonida yurt va millat to‘g‘risidagi haqiqatni to‘la-to‘kis ifodalash imkoni yo‘q edi. Tildan, tarix va qadriyatlardan bahs yuritish ham yozilmagan qonunlarga ko‘ra cheklangan edi. Aksariyat shoirlar Vatan va millatni baxt, baxtiyorlik, ulkan zafarlar og‘ushida tasavvur etar, yozgan she’rlari ham soxta ko‘tarinkilikka asoslanar edi. Shu boisdan ham shoir she’rlarida “Vatan” so‘zi – asosiy so‘z va bosh tushuncha bo‘lib qolmasdan, milliy his-tuyg‘u va haqiqatlarni ochib ko‘rsatadigan kalit hamdir. Abdulla Oripovning Vatan ishqi va dardi bilan yo‘g‘rilgan she’rlarining yana bir muhim xususiyati shundaki, ularning har biri u yoki bu darajada she’rxonni o‘zligini bilishga, “Sen kimsan, ajdodlaring kim, erk va hurriyat beshiging qayonda?” degan savollarga mustaqil javob izlash va topishga undaydi.

Abdulla Oripov she’rlarining ichki ruhini tushungan o‘quvchining ko‘ngli tabiiy ravishda yurtdan g‘ururlanish, fidokorlik, ona diyorga yaqinlik hissiyotlari bilan boyiydi.

Ulug‘ shoirimizning asosiy xizmatlaridan biri – yurt va xalq mavzusini yolg‘ondan, yuzakilik va madhiyabozlikdan nisbatan tozalashga erishganida edi. U ona diyorining quvonch va shodliklari bilan birga dard va azoblarini, muvaffaqiyat va taraqqiyoti bilan bir qatorda g‘am va qayg‘ularini ham dadil ifodalay oldi.

Uning so‘zlari to‘g‘ri, samimiy va haqqoniyligi bois she’rxon qalbini tez ishg‘ol etdi. Abdulla Oripov qaysi g‘oya yoki mavzuda she’r yozmasin, yo bevosita, yo bilvosita Vatan haqida so‘zlab, Vatan va xalqqa daxldor o‘tkir bir fikrni mohirlik bilan ifodalashga erishgan. Masalan, “Armaniston” she’rini olaylik. Shoir arman xalqi va diyorining o‘tmishi haqida mulohaza yuritar ekan, kutilmaganda mana bunday achchiq haqiqatga e’tiborni qaratadi:

Mening ham Vatanim janglar guvohi,
Mening ham tuprog‘im
toptalgandir xor.
Mening ham ruhimda ajdodlar ohi
Mening ham qonimda qilich zangi bor.

Bu satrlar eng mudroq va loqayd kimsaning ham ko‘ngliga o‘qday sanchilib, qonini junbishga keltirmasligini tasavvur qilish qiyin. Vatanning tarixini va umumiy ahvolini chuqur bilgan, jafokash xalqni jon-u dildan sevgan shoirgina o‘z ruhida ajdodlar ohini his etib *“Mening ham qonimda qilich zangi bor”* deyishi mumkin. Yoki xuddi shu she’rdagi mana bu satrlarga e’tibor beraylik:

Tarix deb atalgan qismat bu axir,
Yonida hattoki yuztuban xudo.
Kimni u kamsitib etmagan tahqir,
Kimni u yurtidan etmagan judo.

Bu alam va faryodning ildizini faqat o‘tmishdan axtarish to‘g‘ri emas, albatta. Chunki “Kimni u yurtidan etmagan judo” misrasida yurtga egalik tuyg‘usidan qanoat topmagan shaxsning hasrati va nadomati yashiringandir. Tarix va tarixiy voqealar, tarixiy shaxslarning juda murakkab muammo va masalalariga ishorat etish Abdulla Oripovning sevgan usullaridandir. Ko‘p she’rlarida, jumladan, “O‘zbekiston” qasidasi va “Yuzma-yuz” manzumasidagi ayrim ishoratlarni jur’at va shijoatning yuksak nishonasi desa mubolag‘a bo‘lmaydi. “O‘zbekiston” qasidasida shoir bosqinchilar va bosqinchilikni qoralab:

Har uchragan nokas-u nodon
Ona xalqim, yoqangdan tutdi,

– deydi. Biz “nokas”, “nodon” so‘zlariga ko‘p marta duch kelganmiz. Uning lug‘aviy ma’nolarini yaxshi bilamiz. Shunga qaramay, ularning mazkur kontekstda kutilmagan yangi ma’no qirralari bilan namoyon bo‘layotganini payqash qiyin emas. “Nokas” odatda “baxil”, “sulla” ma’nolarini anglatadi. Bu yerda esa so‘zning tarixi – etimologik ma’nosi “no+kas”, ya’ni “odam emas” ifodasidagi ma’no ham qalqib chiqqan. Va *“Seni Chingiz g‘azabga to‘lib, yo‘qotmoqchi bo‘ldi dunyodan...”* deya fikrini davom ettiradi. Sezgir o‘quvchi esa *“har uchragan nokas-u nodon”* so‘zlari faqat arab yoki mo‘g‘ul bosqinchilariga tegishli emasligini oson ilg‘aydi. Boshqa bir she’ridagi:

Bosqinchi so‘zining ma’nosi shulki,
Nonga to‘yganda ham to‘ymas makonga...

– bayti haqida ham shunday deyish mumkin.

Mumtoz adabiyotimizda “husni ta’lil” degan badiiy san’at qo‘llangan. U asoslash san’atidir. Shoir hayotiy mantiqni anglab, his qilib turgani holda, ongli ravishda undan voz kechib, uning o‘rniga shoirona asosga yo‘l beradi. Masalan, gulning poyasi (“oyog‘i”) bitta ekanligi yaxshi ma’lum. Shoir uchun esa u yor-ma’shuqa uchun bir oyog‘da turib qulluq qilayotgan holatni eslatadi:

Seni husningni ko‘rib gul bog‘da
Tapug‘ aylar turub bir oyog‘da...

(Atoiy).

Xuddi shunga o‘xshash Abdulla Oripovda ham “bosqinchi” so‘zining ma’nosi nonga to‘ysa ham, makonga to‘ymaydigan (odam) tarzida izohlanadi. Bu shoirning mazkur so‘zga qo‘shimcha ma’no yukini yuklay bilganidan paydo bo‘ladigan holdir. Shoir ijodida bu xil misollarni ko‘plab uchratish mumkin.

“O‘zbekiston” qasidasini e’lon qilish, – deydi shoir, – men uchun qiyin bo‘ldi. Muharrirlar quyidagicha talab qo‘ydilar: tariximiz, bugunimiz yaxshi aytilibdi... Lekin Rossiya haqida bir bayt bitishingiz shart”. Shunday sharoitda Vatan va xalq haqida maqtov so‘zlarini bitish o‘ng‘ayroq bo‘lganligi hech kimga sir emas.


Shoir favqulodda falsafiy iqtidor sohibi bo‘lganligi bois Vatan tushunchasiga turli tomondan yondashadi va bu serqirra mavzuni butun kengligi, butun ulug‘vorligi bilan badiiy talqin qilishga urinadi. Shuning uchun shoir she’rlarida qadim tariximizning nafasi, bobolarimizdan meros qolgan diniy va milliy qadriyatlar, xalqning kurashchanligi, mardlik va qahramonlik fazilatlari, yurtning har bir giyohini e’zozlash, ilm va ma’rifatda bayroqdor bo‘lish kabi juda ko‘p xislat va fazilatlar mujassamlashgan.

Gulbahor ASHUROVA,
filologiya fanlari doktori,
Fuzuliy nomidagi ilmiy tadqiqot markazi rahbari

MUTOLAA

OZOD QALB

Shuhrat domla o‘zbek xalqining zabardast adibi, el sevgan shoiri va dramaturgidir. Shoir asarlari nafis lirizmi, qahramonlar ruhiy olamini yorqin ifodalaganligi, his-tuyg‘ularining samimiyligi bilan o‘quvchilar qalbini rom etgan. Uning asarlari xalqimiz ma’naviyati va ma’rifatining ko‘zgusi sifatida ahamiyatlidir.



“Ozod qalb”. Ushbu qissa orqali yozuvchi hibsda bo‘lsa-da kitobxon ko‘z o‘ngida o‘zini mardona tutgan, g‘animlarga bo‘ysunmagan, ozod qalb sohibi sifatida qiynog‘-u uqubatlarni sabot ila yenggan inson o‘laroq namoyon bo‘ladi. Kitobning qimmati shundaki, muallif Mirzo Kenjabek voqealarni 1988-yilda bevosita adib tilidan yozib olgan. Asarda turli qahramonlarning hayoti va ularning ichki kechinmalari badiiy ifoda topgan. Ularning har biri zo‘ravon tuzum kasofatlari sababli boshiga tushgan ko‘rgiliklarni, yo‘qotishlarni va hayotiy sinovlarni yengishga intiladi. Ularni bir jihat – adolat tantanasiga bo‘lgan ishonch birlashtiradi.

O‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan zamonaviy adiblardan biri Mirzo Kenjabekning bu asari real voqealarga asoslangani va o‘sha mudhish kunlarga guvoh bo‘lgan yurtdoshlarimiz oramizda borligi bilan ham o‘quvchilarda mushohada uyg‘otadi. Bu kitobda ruhiy ozodlik masalasi chuqur tahlil qilinadi.

Ushbu qissada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shuhratning mashaqqatli hayoti bilan birgalikda, yigirmanchi asrning elliginchi yillari boshida yurtimizning bir qancha ko‘zga ko‘ringan adiblari hibsga olinishi, ular maxfiy sud qilinib, uzoq muddatlarga surgunga jo‘natilishi ham aks ettirilgan. Ayanchli tomoni shundaki, hukm ham, surgun joyi ham sir saqlangan, hech kimga aytilmagan. Istiqlol yillarida bu adiblar oqlanib, xizmatlari haqli taqdirlandi, hurmatlari rasman o‘rniga qo‘yildi.

Insofdan libos kiy, hamiyatdan toj,
Ezgulik qo‘lingda bo‘lsin bayrog‘ing.
Poklik dengizida dadil ot quloch,
Haqiqat bo‘lg‘usi suyangan tog‘ing!

Yozuvchi o‘z qahramonlari orqali inson qalbining turli holatlarini, uning ichki kurashlari va umidlarini tasvirlaydi. Har bir qahramon o‘z hayoti, sevgisi va kelajagi haqida chuqur o‘yga cho‘madi.

– Asardagi voqealar garchi bir adib tilidan aytilgan bo‘lsa ham, bir davrning fojiasini o‘zida jamlagan haqiqatlardir, – deydi Mirzo Kenjabek. – Kitob “Ozod qalb” deb bejiz nomlanmagan. Chunki Shuhrat aka garchi mustamlaka zamonida, og‘ir tazyiqli zulmlar davrida yashagan bo‘lsa ham, qalbi ozod shaxs edi. Dastlab uni “O‘tmagan kunlar” deb nomlagandim. Lekin keyin Shuhrat akaning shaxsiyatiga yarashadigan, u zotning qalbi ozodligini anglatadigan, “Ozod qalb” va ostsarlavha “Yozuvchi Shuhratning hibsdagi hayoti” nomini ma’qul topdim.

Asar qahramonlari bir xil emas, har biri o‘z hayoti, orzulari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, bir qahramon sevgi izidan ketadi, ikkinchisi esa o‘z ichki dushmanlari bilan kurashadi. Ular qo‘yilgan to‘siqlardan o‘tishga intilishadi.

Bu kitob o‘zbek xalqining ulug‘ adibi “Shuhratning hibsdagi hayoti” deb nomlangani bilan, bu butun o‘zbek xalqining qatag‘on davridagi fojiasini, sovet davridagi ko‘p millatning asl ma’nodagi hibsdagi hayotini namoyon etgan.

Bahora AHMEDOVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari maslahatchisi

2024-yil 4-oktyabr
№ 41(41)

SHAHIDLAR XOTIRASI

va tarixiy adolatning tiklanishi

Boshlanishi 1-sahifada.

2000-yil 12-may kuni “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasining tantanali suratda ochilishi mamlakatimiz va xalqimizning ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayotida ulkan voqea bo‘ldi. Qisqa muddatda “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi mamlakatimizning tabarruk ziyoratgohlaridan biriga aylandi.

Ta’kidlash joizki, mash’um qatag‘onda qurbonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, jamiyatdagi mavqeyi, millati, diniy e’tiqodiga e’tibor berilmagan. Qaysiki shaxs millat g‘amida bo‘lsa, adolat talab qilsa, hur fikrlasa, ilmli bo‘lsa – bunday insonlar tuzumning dushmani hisoblangan va mahv etilgan. Birgina O‘zbekiston misolida ko‘radigan bo‘lsak, 1937-1938-yillardagi “Katta qirg‘in” davrida shoir Abdurauf Fitrat, shoir To‘lagan Xo‘jamyorov (Tavallo), pedagog Qayum Ramazon, sharqshunos olim Xolid Said singari minglab millatimiz fidoyilari qatorida kompozitor, etnograf, san’atshunos V.A.Uspenskiy, taniqli rassom M.I.Kurzin, O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, rassom A.V.Nikolayev – Usta Mo‘min, sharqshunos olim A.A.Semyonov, sharqshunos, etnograf olim M.S.Andreyev kabi rus millatiga mansub insonlar ham qatag‘on qilingan.

Qatag‘on siyosatining yana bir dahshati – ijtimoiy xavfli deb topilgan xalqlarning o‘z vatanidan boshqa o‘lkalarga majburiy ko‘chirilishi bo‘ldi. XX asrning 30–40-yillarida Sovet ittifoqi umumiy aholisining 60 dan ortiq millati qatag‘on girdobiga tortildi. Shundan 15 tasi majburiy ko‘chirilishga – deportatsiyaga mahkum etildi. Deportatsiya qilingan xalqlarni o‘rnashtirish uchun tanlangan joylardan biri O‘zbekiston edi. Yurtimizga o‘n minglab koreyslar, polyaklar, qalmiqlar, qrim tatarlari, chechenlar, ingushlar, greklar, armanlar, mesxeti turklari va boshqa xalq vakillari deportatsiya qilindi. O‘zbekiston ularning ikkinchi Vataniga aylandi.

Aynan shu jihatdan ham “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasini o‘zga yurtlarda xoki qolgan millati, diniy e’tiqodidan qat’i nazar yuzlab vatandoshlarimizning ramziy qabri, ta’bir joiz bo‘lsa, muqaddas makon deyish mumkin.

2002-yil 31-avgustda – mamlakatimizda ilk bor nishonlangan “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni”da aynan shu manzilda Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi ochildi. Muzey faoliyati mustamlaka davridagi o‘zbek xalqi tarixining fojiali bir sahifasi o‘laroq, o‘sha paytda ro‘y bergan iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlarni anglash, qatag‘on siyosatining oqibatlarini ilmiy tadqiqotlar asosida o‘rganishga yo‘naltirilgan. 2008-yilda muzey binosi kengaytirildi va ekspozitsiyasi tubdan yangilandi.



2017-yil 31-avgust – “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni” munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev muzeyga tashrifi chog‘ida, “ushbu muzey – muzeylarning muzeyi” deb, yuksak baho berdi hamda muzeyning viloyatlarda ham bo‘limlarini tashkil etish bo‘yicha taklif kiritdi.

Bildirgan ushbu taklif va mulohazalar asosida 2017-yil 22-noyabrda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmasida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Mazkur qaror bilan muzey Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o‘tkazilib, faoliyati yanada kengaytirildi va takomillashtirildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi 13 ta oliy ta’lim muassasasi tuzilmasida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylari tashkil etildi. 2021-yilda davlat rahbarining topshirig‘iga binoan Qarshi shahridagi Odina masjidida Qashqadaryo viloyat Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi yangitdan yaratildi. Sovet davrida NKVD qamoqxonasiga aylantirilgan ushbu tarixiy obidada tashkil etilgan muzey 2021-yil 11-oktyabrda Prezidentimiz tomonidan tantanali ravishda ochildi.

2020-yil 8-oktyabrda Prezidentning “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi qabul qilinishi esa tarixiy adolatning tiklanishi va shahidlar xotirasi abadiylashtirilishi borasida olib borilayotgan ishlarni yangi sifat bosqichiga ko‘tardi. Farmoyish asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida jami 14 ta “Qatag‘on qurbonlari” xotira kitoblari tayyorlandi. Ularga 40 mingga yaqin qatag‘on qurboni bo‘lgan vatandoshlarimizga oid ma’lumotlar kiritildi.

Mazkur farmoyish bilan mustabid sovet tuzum davrida qatag‘on qilingan va muayyan sabablarga ko‘ra oqlanmay qolgan vatandoshlarimizni oqlash borasida ham muhim ishlar qilindi. Oliy sud tomonidan 2021-yil 25-avgustda 115 nafar, 2022-yil 6-yanvarda 120 nafar, 2022-yil 19-dekabrda 173 nafar, 2023-yil 19-aprelda 208 nafar, 2023-yil 24-avgustda 240 nafar, 2023-yil 1-dekabrda 174 nafar, 2024-yil 6-mayda 205 nafar, jami 1220 nafar yurtdoshlarimiz nomi oqlandi. Bular orasida o‘zbek (981 ta) millatidan tashqari tojik (86 ta), qirg‘iz (9 ta), qozoq (104 ta), rus (2 ta), qoraqalpoq (22 ta), tatar (5 ta), fors (6 ta), turkman (4 ta), hatto arab (1 ta) millatiga mansub shaxslarning borligi, “siyosiy qatag‘on mashinasi” millat tanlamaganidan dalolat beradi.

Oqlanganlarning aksariyati, Turkistondagi jadidlik harakati namoyandalari ekanligi bejiz emas. Binobarin, mustabid sovet davrida aynan ma’rifatparvar, taraqqiyparvar, ziyoli insonlar qatag‘on qilingan.

Jadid taraqqiyparvarlari va qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatini o‘rganish, ularning ilmiy merosini tadqiq etish bugungi kunga kelib eng dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan ishga aylandi. Muhtaram Prezidentimiz bu borada juda to‘g‘ri ta’kidlaganidek “Ularni xotirlash, ezgu ishlarini davom ettirish biz uchun ham qarz, ham farz”.

Joriy yil 19-iyulda qabul qilingan “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi Prezident qarori ham jadid bobolarimiz va qatag‘on qurbonlarini xotirlash, ularning ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganishga turtki beradigan ulkan tarixiy qadam bo‘ldi.

Qarorda belgilab berilgan vazifalar, shubhasiz, 1937–1953-yillar mobaynida yuz bergan ayanchli qatag‘on siyosatining eng nozik qirralarigacha tadqiq etishda hamda yurt, millat uchun aziz jonlarini qurbon etgan jadid bobolarimizning hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ushbu qarorda ko‘p jildlik “Qatag‘on qurbonlari” kitobini chop etish, Toshkent shahridagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasiga ramziy kitobni o‘rnatish, oktyabr oyining birinchi haftasini mamlakatimizda Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida nishonlash, qatag‘on etilgan ajdodlarimizning xotirasini abadiylashtirish maqsadida spektakllar, badiiy va hujjatli filmlar tayyorlash, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘onga uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilish tartibini nazarda tutadigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishga doir topshiriqlar bu boradagi ishlarning ko‘lamini yanada kengaytirishga zamin hozirlaydi.

Chet eldagi turli fondlar, arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma’rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlik o‘rnatgan holda, qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatini tadqiq etishga doir ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirish to‘g‘risidagi tashabbus, shubhasiz, mard va jasur bobolarimizning ayni damda xorijda saqlanayotgan mo‘tabar merosini o‘rganishda yangi ufqlarni ochish imkoniyatini beradi.

SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining 1938-yil 4–16-oktyabr kunlaridagi sayyor yig‘ilishida 507 nafar o‘zbekistonlik siyosiy mahbus ustidan hukm o‘qilgan. Ularning eng ko‘zga ko‘ringanlari jismonan mahv etilgan. Qolganlari uchun turli muddatga surgun yoki qamoq jazosi belgilangan. Umuman olganda, 1934–1938-yillari O‘zbekistonda 40 mingdan ortiq inson qatag‘on qilingan. Shulardan 730 nafari “xalq dushmani” sifatida otib tashlangan.

Qaror doirasida belgilangan Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi yurt ozodligi, vatan taraqqiyoti yo‘lida aziz jonini fido etgan ajdodlarimizning xotirasini abadiylashtirishga katta asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu haftalik davomida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tomonidan ham bir qator tadbirlar o‘tkazish rejalashtirilgan. Eng avvalo, qatag‘on qurbonlarining muqaddas xoklari qayta dafn etilgan poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi “Oqil ota” qabristonida davlat va jamoat arboblari, fan, adabiyot va san’at namoyandalari ishtirokida shahid bobolarimiz xotirlanib, ularning haqlariga duolar qilinadi.

Shundan so‘ng Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan Turkiston jadidlarining hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan rangtasvir asarlari ko‘rgazmasi, shuningdek, “Nuroniy” jamg‘armasining Toshkent shahar bo‘limi bilan birgalikda “Tarixdan ibrat olib…” nomli ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazish rejalashtirilgan.

O‘tkaziladigan tadbirlar orqali yurtimizdagi tinchlikni qadrlashga chorlash barobarida, inson xotirasi va qadrining shunday yuksak darajada ulug‘lanayotganiga e’tibor qaratish ko‘zda tutilgan. Haftalik tadbirlari farzandlarimiz uchun tengsiz saboq va munosib ibrat vazifasini o‘tashiga ishonamiz.

Baxtiyor HASANOV,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori, professor
Quddus ASAD olgan suratlar

QATAG‘ON QURBONLARI


KO‘PGA KELGAN BALO

yoxud yozuvchi Boris Cheprunov taqdiri

Qattol tuzum davrida yurtimizda mahalliy ziyolilar bilan bir qatorda, o‘zga millatlarga mansub bo‘lgan ko‘plab fidoyi insonlar ham zulm va haqsizlik qurboni bo‘lishgan. Bugungi kunda ularning ham nomlari birin-ketin oqlanib, xotirasi e’zozlanmoqda. O‘z asarlarida yurtimiz tarixini xolis va adolatli tarzda aks ettirish orqali taniqli ijodkorlar va kitobxonlar mehrini qozongan iste’dodli yozuvchi Boris Vasilevich Cheprunov ana shunday shaxslardan biri edi.

Boris Cheprunov 1891-yil 25-yanvarda Ko‘hna Urganch shahrida Rossiyadan majburan ko‘chirib keltirilgan rus krepostnoy dehqoni oilasida dunyoga kelgan. Borisning bolaligi Xorazm vohasida o‘zbek, turkman bolalari bilan kechgani bois u mahalliy til va qadriyatlarni juda erta o‘rgandi. 1905-yili otasi vafot etgach, yosh bo‘lishiga qaramay ishlab, oilaga yordamlashishiga to‘g‘ri keldi. Avval Urganchdagi bir korxonada kichik xizmatchi bo‘lib mehnat qiladi, 1910-yildan Yangi Urganchdagi Rossiya Osiyo banki bo‘limiga ishga kiradi. U dam olish kunlari idora qoshidagi arabcha xat-savodni o‘rganish mashg‘ulotlariga qatnaydi, Toshkentda chop etiladigan *“Turkestanskiy kuryer”* gazetasida ilk maqolalarini e’lon qiladi.

Boris Cheprunov “Yosh xivaliklar” harakatini ham, jadidlarning hurriyat yo‘lidagi ezgu intilishlarini ham, inqilob yillarida qizil armiyaning Xorazm vohasida amalga oshirgan dahshatli xunrezliklarini ham o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. Istiqlolchilik harakati, ayniqsa, Junaidxon va uning qahramonona kurashining asl mohiyatini qalban anglab yetadi. Keyinchalik esa Toshkentga kelib, mahalliy rus va o‘zbek matbuotida faol qatnashadi. O‘zbek va rus yozuvchilari bilan aloqaga kirishib ketadi. 1934-yil



O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida rus adabiyoti bo‘yicha adabiy maslahatchi, 1935-yildan rus yozuvchilari bo‘limi raisi, *“Literaturniy Uzbekistan”* jurnalining tahrir hay’ati a’zosi vazifalarida ishlaydi. U mazkur jurnalda rus yozuvchilari bilan bir qatorda, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, Usmon Nosir kabi o‘zbek adiblari asarlarining ruscha tarjimalarini ham chop ettiradi. O‘zining “Xorazm hikoyalari” (1931), “Matyoqubov” (1933), “Miyoviddin Mirzo”, “Junaidxon” (1936) kabi asarlarini e’lon qiladi. “Mustamlakachilar” degan yangi romanini yoza boshlaydi.

1935-yil “Mushtum” jurnali tahrir hay’atiga jalb etilgan Cho‘lpon Boris Cheprunovning “Miyoviddin Mirzo” qissasini o‘zbek tiliga tarjima qilib, jurnalning 1936-yilgi sonlarida chop qildiradi. U qissaga yozgan kirish so‘zida: “O‘rtoq Boris Cheprunov tomonidan yozilgan “Miyoviddin Mirzo” qissasi xalq ijodiga taalluqli bir asardir. Xalq ijodida “Miyoviddin Mirzo”ga o‘xshagan hayvonlar hayotiga oid asarlar ko‘pdir. Bu asarlarda ayrim hayvonlarga turmushdagi jonli tiplarning sifati berilgan. Shuning bilan ayrim bir davrning xususiyatlari izoh qilinadi... Asardag‘i har bir hayvon o‘sha turmushdagi jonli bir kishini juda ustalik bilan ifoda qila oladi. Xalq ijodida satira juda yaxshi tomir yozg‘on. Bizning satiramiz keng xalq ijodidag‘i tajribalardan, ustaliqlardan foydalanishi kerak. Shuning uchun “Mushtum”da “Miyoviddin Mirzo” qissasini bosib boramiz”, deb iliq fikr bildiradi.

1937-yilning 2–7-sentyabr kunlari bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 4-plenumida Boris Cheprunov ham sovetlarga qarshi burjua millatchilik g‘oyalarining himoyachisi deb tanqid qilindi. Jumladan, 5-sentyabrdagi yig‘ilishda yozuvchi Pletnev Boris Cheprunovning “Junaidxon” romani haqida **“Bizning adabiy doiralarimizda mazkur asar adabiyot olamimizda butun bir adabiy hodisa deyilib, ko‘klarga ko‘tarildi. Men mehnat ta’tiliga ketganimda ushbu kitobni o‘zim bilan birga olib ketib, sinchiklab o‘qib chiqdim. Bu yerda shuni ochiq aytishim kerakki, kitobda juda ko‘p nosog‘lom fikrlar, ko‘p siyosiy xatolar mavjud. Jumladan, asarda asosiy mavzu – jadidizm masalasida shunday xatolar bo‘lgan. Romanda jadidlar bo‘yab, nuqsonsiz qilib tasvirlangan. Asarda mayda savdogarlar, hunarmandlar – hammasi go‘yo o‘z xalqining madaniyati haqida qayg‘uradilar, inqilob uchun faol kurashadilar. Buning oqibatida romanda jadidizmning mohiyati ochilmay qolib ketaveradi. Bu oqimning ortiga bekingan yirtqich odamlar basharasi ochilmaydi. Ularning hammasi go‘yo bir farishtasimon, gunohsiz kishilar qilib ko‘rsatiladi”**, deydi.

1937-yil 19-oktyabrda Yozuvchilar uyushmasining rus adabiyoti bo‘limi faollari bilan birgalikda o‘tkazilgan kengaytirilgan majlisda 1937-yil 20-sentyabrda “Комсомолес Узбекистана” gazetasida bosilgan “Burjua millatchilari va ularning homiylari” maqolasi muhokama qilinadi. Unda Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir bilan bir qatorda Boris Cheprunov, Bondarenko, Titov-Omskiy, tarjimon Lidiya Soserdotova va boshqalar rus hamda o‘zbek millatchi yozuvchi-shoirlarining homiylari va targ‘ibotchilari sifatida tanqid qilinadi. Boris Cheprunov ularga qarshi: *“Maqolaning ruhi tuhmatdan iborat, u shaxsiy o‘ch olishga o‘xshaydi. Bondarenko halol, mehnatkash bir odam, u bizning yaxshi do‘stimiz… Men Titov-Omskiyni ham anchadan beri bilaman, u yosh yozuvchilar ichida ishchan, g‘ayratli bir yigit, uni axloqiy-maishiy buzuqlikda ayblashlari o‘rinsiz, deb bilaman”,* deydi. Lidiya Soserdotova esa **“Burjua millatchilari va ularning homiylari” maqolasida Abdulla Qodiriy kabi yozuvchilarga nisbatan nohaq hujumlar bo‘layotgani, uning tarjimonlariga tuhmat toshlari otilayotganini mardona tanqid qiladi. Hatto, Lidiya Soserdotova munozara vaqtida keyingi vaqtlarda Abdulla Qodiriyga nisbatan bo‘layotgan haqsizliklardan norozi bo‘lib, bu haqda shaxsan Stalin nomiga xat yozganini ham ta’kidlaydi.**

Biroq zulm va haqsizlik bu gal ham g‘olib keladi. 1937-yil 4-dekabrda Boris Vasilyevich Cheprunov O‘zSSR JKning 57-, 64-, 67-moddalari bilan ayblanib, Toshkent shahri, Oktyabr tumani, Surat mahallasi, 205-uydan hibsga olinadi. Bu vaqtda uning oila a’zolari sifatida turmush o‘rtog‘i Vera (1905-y.t.), o‘g‘li Yuriy (17 yosh), Anatoliy (14 yosh) va Leonid (1 yil-u 8 oylik)ning nomlari qayd etilgan. Bir hafta o‘tar-o‘tmas u Yozuvchilar uyushmasi a’zoligidan chiqariladi.

O‘sha yili 5-dekabrda Breslavskiy imzolagan adabiyot xodimlari taqrizida B.Cheprunov haqida “tarix falsifikatori” deb xulosa berilgan. Shuningdek, mazkur taqrizda “Junaidxon” tarixiy romanida **“Yosh xivaliklar” ulug‘langan, Junaidxon asossiz dohiyga aylantirilgan, so‘l eserlarning bolsheviklarga nisbatan xalq uchun hurmatliroq bo‘lgani qayd etilgan,** To‘rtko‘l uchun kechgan janglarda xunlar zamonining yovvoyi sardori asossiz o‘ta mulohazali va aqlli inson sifatida tasvirlangan, deya xulosalar beriladi. Boris Cheprunovning “Ishanskaya bucha” qissasida esa qahramonlar tilida “Allohga shukr” degan gaplar juda ko‘p uchraydi, deyiladi.

Xullas, Boris Cheprunov bir yarim oy qamoq azobini chekkach, 1938-yil 23-yanvarda birinchi bor tergovga chaqiriladi. Bungacha esa u va uning asarlariga tuhmatli hujumlar uyushtirilib, ichki taqrizlar yig‘ib olinadi. Endi tergovchining faqat o‘sha “ayblov”larni “aybdor”ning bo‘yniga qo‘yishi va uni oxirigacha “fosh qilishi” qolgan edi! Uzoq vaqt qamoq va qiynoq azoblaridan holsizlangan Boris Cheprunov o‘ziga qo‘yilgan ayblovlarni bo‘yniga



olishga majbur bo‘ladi. Tergovchilar esa, bayonnomada ularni yanada bo‘rttirib, o‘z qo‘llari bilan to‘qib-bichib yozaverdilar. Boris Cheprunov 1938-yil 8-oktyabrda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi huzuridagi mash’um “uchlik”ning Toshkentdagi sayyor yig‘ini qarori bilan oliy jazo – otuvga hukm qilinadi. Hukm o‘sha kunning o‘zidayoq ijro etiladi.

Stalin vafotidan bir necha yil o‘tgach, yaqinlarining arizasi asosida Boris Cheprunovning ishi ham qayta ko‘rishga topshirildi. Zahmatkash va haqgo‘y adibni yaqindan tanigan va uning asarlariga taqriz yozgan ayrim rus yozuvchilari guvoh sifatida qayta so‘roqqa tortiladi. Xususan, Andrey Ivanov, Aleksandr Udalov kabi ijodkorlar Boris Cheprunovning o‘z davrida juda mashhur bo‘lgani, yosh shoir va yozuvchilarga hamisha samimiy yordam ko‘rsatgani va u haqida hech qanday yomon fikr eshitmaganliklarini bayon qilishadi. Vaqtida “Junaidxon” romaniga yozilgan salbiy taqriz muallifi Breslovskiy esa, o‘sha taqriz boshqa shaxslar tomonidan yozilib, unga majburan imzolatilganini tan oladi. 1957-yil 28-iyunda B.Cheprunov SSSR Oliy sudi tomonidan oqlandi.

Bahrom IRZAYEV,
Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi bosh ilmiy xodimi

“MILLIY ITTIHOD”CHI MAHMUDXON AHMADXONOV

Boshlanishi 1-sahifada.

Mahmudxon Ahmadxonov 1929-yili aksilinqilobchi sifatida hibsga olingach, 9 oy qamoqda saqlanadi. Keyinchalik tergov natijalariga ko‘ra aybsiz deb topilib, ozodlikka chiqarilgan. Ammo 1931-yili “Badriddinovchilar guruhi” a’zosi sifatida O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 63-moddasi bilan aksilinqilobchi sifatida qayta hibsga olingan.

1932-yil 5-may – 15-iyun Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan SSSR Oliy sudi sayyor sessiyasida sud tarkibi Antonov-Saratovskiy, A.Azol, R.Yunusbekov, Smoliskiydan iborat bo‘lgan. Oliy sud prokurori yordamchisi R.P.Katanyan qoralovchi, Mo‘min Usmonov jamoat qoralovchisi, advokatlar jamiyati a’zolari Salnikov, Ahmedov, Polonskaya, Niyozov ishtirokida 109-sonli ish ko‘rib chiqilgan.


Mahmudxon Ahmadxonovning sovet hukumatiga qarshi aksilinqilobiy kayfiyatda bo‘lganini, turli yashirin tashkilotlarda faoliyat olib borganini asoslash uchun sudga bir qancha guvohlar chaqirilgan. Sudning 8-may kunidagi kechki majlisida guvoh Rahmon Yusupov o‘z bayonotida aybdor Mahmudxon Ahmadxonov haqida shunday ko‘rsatma bergan: *“Ahmadxonov “Sho‘royi islom”ning mas’ul kotibi bo‘lib ishlagan. Muxtoriyat hukumati yiqitilgandan so‘ng qo‘qonlik Mahmudxon qori bilan Andijonga qochib kelib jon saqlagan. Ahmadxonov Farg‘ona viloyat maorif mudiri bo‘lib turganida maxsus maktablar tashkil etib, Rahmon qo‘rboshi, Abdusalom boyvachcha kabilarning o‘g‘illarini tarbiyalagan”*.

1917–1920-yillarda Anvar Poshsho tomonidan “Sho‘ro ittifoqini yo‘q qilish uchun birlik va taraqqiyot” rejasi tuzilib, u maktablarda targ‘ib qilinadi. Unga ko‘ra aksilinqilobchilarning partiya va komsomol safiga a’zo bo‘lib kirishini tashkillashtirish, bosmachilar saflarida mustahkam birlik va yagona boshqaruvni ta’minlash, hech narsadan tap tortmay paxtachilik rivojiga qarshi kurash olib borish, kerak bo‘lgan taqdirda qizillar tomoniga o‘tgan dehqonlarning qo‘llarini va quloqlarini kesish, mutaxassislar bilan aloqada bo‘lishni majburiy shart qilib qo‘yish vazifa qilib belgilab berilgan. Bu shartlarni bajarishda Mahmudxon Ahmadxonov ham faol qatnashganligi qayd qilingan.

Sudning 1932-yil 9-maydagi yig‘ilishida muxbir Mirza Hotam Olimov quyidagilarni aytadi: *“1928-yilning yoz mavsumida aybdor Musaxanov uyida yig‘ilish bo‘lib, unda Qo‘qon aksilinqilobchilaridan Ashurali Zohiriy, Mahmudxon Ahmadxonov, Lutfillo Olimiy, Abdulla Rahmat, Muxtor Muhammadiy, Mamat Haydarov, Sa’dulla Qosimov, hozirda aybdor bo‘lgan Shamsi Badriddinov va boshqalar qatnashdilar. Ichkilikdan so‘ng “Vatan, millat qayg‘usi” boshlangan. Mahmudxon Ahmadxonov “mamlakatni chipta kovushlar, maymunlar bosib ketganini” so‘zlab ko‘zyosh qilgan. Sa’dulla Qosimov esa stolni urib “Biz ularga ko‘rsatib qo‘yamiz” degan. Masala jiddiylashib ketgandan so‘ng “yot unsur”lar chiqarib yuborilib, o‘zlari majlisni davom ettirganlar”*.

Oradan uch kun o‘tib “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1932-yil 12-may sonida “Tort qo‘llaringni muxbirdan” nomli maqola chop etilgan. Muxbir Komil Aliyev sayyor sudning 10 may kungi yig‘ilishida guvoh sifatida taklif qilingan Mirza Hotam Olimov ko‘rsatmalarini bayon qilib o‘tgan: *“Men Mahmudxon Ahmadxonovning sovet hukumatining muhim organlarida boshliq, o‘rinbosar va a’zo bo‘lganini tasdiqlayman. Lekin Ahmadxonov bu lavozimlarda turib 16 mingdan ziyod qurollangan “bosmachi”larni qaysi birini burnini qonatdi, aksincha u otasidan qolgan 2 ta beshotar, 4 ta o‘nliotar, 3 ta to‘pponchani bosmachilarga uzatib, bosmachilarni qurol bilan ta’minlovchilarning oldingi qatoridan joy oldi. Inqilob Qo‘mitasida rais bo‘lib turganida turk zobitlaridan bo‘lgan Mustafo Subhiy, Ahmed Fikriy bilan doimiy aloqa saqlab, ular vositasi bilan qo‘qonlik Mirza Vosiy Qodiriy, Soli bosmachilarni Turkiyaga o‘qishga yuborgan.”*

Sudda davlat qoralovchisi Katanyan Ahmadxonovga shunday ayb qo‘ygan: *“Ahmadxonov 1917-yildan aksilsho‘roviy kurashning faol a’zosi. Qo‘qon muxtoriyati va Lenin milliy siyosati o‘rtasidagi, “Milliy ittihod” bilan O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti o‘rtasidagi, Dutov bilan Lenin o‘rtasidagi farqlarni o‘zicha tahlil qilgan. Yana u 1929-yilda xotin-qizlarni 30 yildan keyin ozodlikka chiqarish kerak, hali “Hujum”ga tayyor emasmiz” degan. Sho‘ro maorif ishlarida rahbarlik vazifasini ishg‘ol qilib, maktablarni boy, savdogar, bosmachilar bolalari bilan to‘ldirgan. Shu yo‘l bilan aksilinqilobchilar uchun yosh kadr va o‘rinbosarlar tayyorlab bergan. 1929-yilda Ahmadxonov xonadonida yashirin yig‘ilish o‘tkazilgan. Unda S.Qosimov, Sh.Badriddinov ham qatnashgan. Yig‘ilishda sovet hukumatiga qarshi kurash vaqti yetgani aytilib, uni amalga oshirish yo‘llari muhokama qilingan. Men Ahmadxonovni yuqoridagi harakatlari hatto 1931-yilda ham davom etganini hisobga olib, unga otuv jazosi berilishini talab qilaman”*.



Sud jarayonida “bosh aybdor” O‘zbekiston SSR Oliy sudi sobiq prokurori Shamsiddin Badriddinovdan maslakdoshi Mahmudxon Ahmadxonov haqida so‘ralganda, uni Qo‘qonda inqilobiy qo‘mitaga raislik qilgan paytdan beri tanishini, partiya tomonidan berilgan vazifalarni bajarishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaganini, unga qo‘yilayotgan ayblar biror asosga ega emasligini ta’kidlagan. Biroq sud kollegiyasi “aybdor”ni va uni oqlovchilarning fikrlarini umuman e’tiborga olmagan. Mahmudxon Ahmadxonov O‘zbekiston Jinoyat qonunlari to‘plami 63-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlarda aybdor deb topilgan va 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan.

Sud hukmi bilan Ahmadxonov 8 yil davomida turli konslagerlarda jazoni o‘tagan. 1939-yilda muddatidan oldin ozodlikka chiqib, Qo‘qon shahrida savdo ishlari bilan shug‘ullangan.

Ammo 1942-yil 19-aprelda Farg‘ona oblasti prokurori adliya katta maslahatchisi G.V.Korginning 7-sonli orderi bilan NKVD xodimlari Qo‘qon shahri Bog‘ibo‘ston ko‘chasi 32-uyda yashayotgan Mahmudxon Ahmadxonovni aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda faol ishtirok etgan, deb ayblab yana hibsga oladi.

Mahbus M.Ahmadxonov 1942-yil 9 oy davomida Qo‘qon, keyin Toshkent shahridagi turmalarda tergov qilinib, tergov davomida bir qancha guvohlardan ko‘rsatmalar olingan. Guvoh Umid Husainov tergovda *o‘taganman, 1939-yilda muddatidan avval ozod qilinganman.*

– Qamoqdan qaytgach, qaysi mahalliy millatchilar bilan aloqada bo‘lgansiz?

– Qamoqdan qaytgach hech qanday millatchilar bilan aloqada bo‘lmaganman.

– Tergovga ma’lumki, qamoqdan keliboq, aksilinqilobchilar Abdurauf hoji Abdurahmonov, Abbos hoji Kalonxo‘jayev, Rasuljon Ma’murboyev, Haydar Ali Sarimsoqov, Bobobek Toshboyev, Azimjon Boltaboyev bilan aloqalaringizni tiklagansiz. To‘g‘ri guvohlik bergan holatda qachon va qanchalik tez-tez uchrashganligingiz haqida ma’lumot bering.

– Yuqorida nomlari keltirilgan shaxslar bilan qamoqqacha va qamoqdan so‘ng ko‘chada oddiy tanish sifatida uchrashib turganman. Ular bilan boshqa hech qanday aloqam bo‘lmagan (O‘zR DXX arxivi P 25090-ish, 58–60-varaqlar).

Tergov jarayonida ayg‘oqchilarning chaquv ma’lumotlari ham keltirib o‘tilgan. “Yozuvchi” laqabli agentning ma’lumotida 1939-yil 23-dekabr kuni Jakbar Yoqubov xonadonida taniqli muxtoriyatchi Yoqubjon Eshon o‘g‘li, taniqli metsenat, jadid maktabi o‘qituvchilariga yordamchi bo‘lgan Hadyabek Quvvatbekov, Olim Aminov, Ahad Rizayev, Javlon Rahmatov, Aminjon Hamidov ishtirokidagi yig‘in bo‘ladi. Unda Mahmudxon Ahmadxonov: *“Men 8 yil turli jazoni o‘tash lagerlarida ko‘p ayanchli voqealarga guvoh bo‘ldim. U yerdagi mahbuslarga bo‘lgan munosabatlarga hatto hayvonlar ham chiday olmaydi, yotish va ovqatlanish joylari o‘ta xarob, mehnatga yarasha ovqat berilmaydi, buni ustiga temir intizom joriy qilingan. Bu zulmlardan zamonamizning eng sara va bilimli, hurmatli kishilari o‘lib ketdi. Lagerda aybdorlarmi, aybdor bo‘lmaganlarmi barchani qisqa muddatda mavjud tuzumga nafrati ortadi va aksilinqilobchiga aylanadi. Men turli millat vakillarini hamjihatligi va sabr bilan ishlash qobiliyatini kuzatdim. Bu sharoitlarga boshqa millat vakillari chiday olmadi, o‘zbek va tojiklargina chidadi va irodali bo‘ldi. Lagerlarda deyarli barcha yetakchi staxanovchilar bizning xalq vakillari edi”. Suhbatga Quvvatbekov qo‘shilib, quyidagilarni aytdi: “Bizda buyuk Sharq va rus madaniyati rivojlangan va rivojlanmoqda. Ruslar o‘z madaniyatini qayerdan olgan? Butun dunyo Sharqning madaniy boyliklari asosida rivojlanmoqda, shu jumladan rus xalqi ham* (O‘zR DXX arxivi P 25090-ish, 82 – 83-varaqlar)”.

Yana bir agentning 1942-yil 29-iyun kungi ma’lumotida: *“Yaponiya dunyoning barcha musulmonlariga bitta davlat tuzishiga yordam qilishga va’da bermoqda. Hozirgi kunda Hindistonning Kalkuta, Bombey, Dehli, Peshavor kabi shaharlari aholisining 170 millionga yaqini musulmondir. Ular asrlar davomida o‘z mustaqilligini orzu qilib yashagan. Tez orada mustaqillikni qo‘lga kiritishadi. Biroz qiyinchiliklardan so‘ng musulmonlar olami bu la’nati ingliz va ruslar istibdodidan ozod bo‘ladi* (O‘zR DXX arxivi P 25090-ish, 85-varaq)”, degan.

Ayblov xulosasida “Ruslar mahalliy millat vakillarini o‘ta madaniyatsiz deb kamsitmoqda, aslida esa ruslar madaniyatni o‘zbeklardan o‘rgangan”, “Sovet davlati bizning davlat emas”, “Soliqlarning ortib borishi aholini qashshoqlashtirmoqda, bu holat yashashni qiyinlashtirmoqda, bunga qarshi kurashish kerak”, degan tashviqotlarni olib borganlikda, shuningdek, Germaniya hujumi sovet hokimiyatini sarosimaga solib qo‘ydi. Biz bu vaziyatdan unumli foydalanishimiz, birlashishimiz kerak”, deb ommani chalg‘itgani ko‘rsatib o‘tiladi. Oqibatda uning ayblov ishi O‘zbekiston SSR NKVDsining “uchligi”ga yuborilgan, o‘zini esa Toshkent turmasiga o‘tkazishgan.

1942-yil 1-oktyabrda O‘zSSR prokurori o‘rinbosari A.Polyanskiy jinoyat ishi xulosasiga ko‘ra Mahmudxon Ahmadxonovni otuvga hukm qilishlarini so‘ragan.

Biroq O‘zbekiston SSR NKVDsi “uchligi” “aybdor” ishini qayta o‘rganib chiqadi va 1943-yil 20-fevraldagi qaroriga ko‘ra Mahmudxon Ahmadxonov 10 yillik qamoq jazosiga hukm qilinadi (O‘zR DXX arxivi P 25090-ish, 207-varaq).

Unda jazo muddati 1943-yil 20-fevraldan boshlab hisoblanishi, mahbus Uxta shahriga yaqin bo‘lgan Uxta ishchilar posyolkasida joylashgan issiqlik energiyasi sanoatiga moslashgan axloq tuzatish mehnat lageriga yuborilishi belgilab qo‘yilgan. Lagerdagi sharoit shu qadar og‘ir ediki, Mahmudxon Ahmadxonov yil oxiriga yetmasdan 1943-yil 10-dekabr kuni ayanchli tarzda vafot etadi.

Uzoq yillar mobaynida oila a’zolariga Mahmudxon Ahmadxonovning taqdiri haqida hech qanday ma’lumot berilmagan. 1960-yil 15-iyun kuni Mahmudxon Ahmadxonovning xotini Qo‘qon shahri Nizomiy ko‘chasi 47-uyda yashovchi To‘shaxon Ahmadxonova O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzuridagi davlat xavfsizlik xizmati raisiga ariza bilan murojaat qilgan. Unda quyidagilarni bayon etgan: *“Turmush o‘rtog‘im Mahmudxon Ahmadxonov 1942-yili NKVD xodimlari tomonidan hibsga olingan vaqtida butun mol-mulklar bilan birga bizga tegishli bo‘lgan shaxsiy hujjatlarimizni ham olib ketishgan. O‘zbekiston SSR Oliy sudi tomonidan turmush o‘rtog‘im M.Ahmadxonov “ayb”siz deb topildi va uning nomi oqlandi. Shu bois, Sizlardan turmush o‘rtog‘im M.Ahmadxonovni partiya safiga tiklashni va bizga tegishli bo‘lgan hujjatlarni qaytarishingizni so‘rayman”.*

Jabrlanuvchining arizasi ko‘rib chiqilmagan, unga javob ham qilinmagan.

Fojia shundaki, Mahmudxon Ahmadxonov 1942-yil 28-aprel kuni qamoqxonada o‘z dastxati bilan to‘ldirgan “mahbus anketasi”da “oilaviy ahvoli” degan bandi-



Bədriddinoflər sodə

„TART qollarьnь muxbьrdan!“

guvah - Mirzəxətəm Əlimof davam etədi

·Menin əjdər Əhmədxanof ailən bolqan maçaram, addьь bir çançal bolmasdan, bəlki sinfii, mafkyrəvii kyraş edi. Cynki, biz hər ikimizhər iki sinifnin oqullarь edik. Bunьn ystigə, menin atam Əhmedoflar jeridə qul ornьda 24 jьl işlədi. nəticədə, Əhmədxanoflar eşigidən tepkilənməxorlanьb, həjdələdi.Özimesə, jaşlьqdaqalьrьnь Əhmədxanoflarnьn çuvazlarьnь həjdəə atxanalarьnь tazalaə etkəzdim. Şunьn ycyn həm, eksploatator Əhmədxanoflarqa, unьn və məsləkdəşlərinin məfkyrələrigə qarşь en tijədən cьqarьlqanьnь bələdь avaz bilən b'lan qьldь və partijə biletini şu anda-jaq tartьb aldь.

Əlimofgə nisbətən Farqana okrug partijə kontrol komisijəsitamamьdan eməs, Orazata tərəfidən verilgən bu çaza —Əhmədxanoflar nuqtaьb nəzəridən çydə jenil edi. Ular ycyn xumar tarqata turqan bir nərsə—Əlimofnin hajatьnь aytynlaj nitirişdən ibarat edi.Şunьn ycyn həm bu ur jьqьtcь kontrlar muxbьr-Əlimofnil əldiriş planьnь cьzьşqa kirişdilər.

əzidə, 4 ajnьn icidə Farqana vadьsьdan 5 tə muxbьr əldirildi. Xususan a'zaki mə'lymat beryvci (yskor) Zьjautdin əkə kyppə-kyndyzi dyşmənlər tamamьdan sojьlьb taşlandь.

Ortaq **Katanjan**, şahdnьn bu çavabьnь təkmilləə şundaj dedi;

— Ortaq sodlar! Özbekistan işçi—dьjqan muxbьrlarь əz qatlarьndan bir munca kyrəşcən-faal ortaqlarnь :oqatьb, dyşmən qolьda qurban verdilər. Bu qanlь vaqь'alar işçi-dьjqan muxbьrlarьnь qattьq hajaçanqa saldь. «Özbəl Özbekistan», «Jəni Far-

“Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1932-yil 12-may sonida e’lon qilingan “Tort qo‘llaringni muxbirdan” nomli maqola.

ga ota-onasini vafot etganligi, xotini bilan 1935-yilda ajrashgani, singlisi – 1902 yilda tug‘ilgan Robiya Ahmadxonova borligini yozgan, xolos. Bizningcha, Mahmudxon Ahmadxonov oila a’zolari haqidagi ma’lumotlarni yashirgan, ularning keyinchalik so‘roqqa tortilishi, “yot unsur”, “xalq dushmani” oilasi, farzandi” degan nom bilan qatag‘on domiga tortilishini oldindan anglagan bo‘lsa kerak.

Mudhish milliy va ijtimoiy zulm, sovet rejimining qatag‘on siyosatiga qarshi mardonavor kurashgan, o‘sha rejimning nohaqliklarini fosh eta olgan, milliy g‘urur va tarixiy qadriyatlarning toptalishiga qarshi turgan, butun borlig‘ini adolat ishiga safarbar etib, erk, hurriyat uchun kurash olib borgan Mahmudxon Ahmadxonov adolatsiz tuzum, totalitar rejim tufayli qatag‘on qurboni bo‘ldi. Uning bosib o‘tgan ayanchli, mashaqqatli, lekin sharafli hayot yo‘li hozirgi va kelgusi avlodlar uchun ibrat maktabi, vazifasini o‘taydi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor
O‘ktambek UBAYDULLAYEV,
tarix fanlari nomzodi

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Abdulhay Tojiyev – 1899-yil Toshkentda tug‘ilgan. Sakkiz yoshidan boshlang‘ich maktabga kirgan. Uch yillik rus-tuzem maktabi va olti oylik muallimlar kursini, keyinchalik Moskvadagi Kommunistik universitetni tugatgan. Qizil professorlar institutida o‘qigan. U O‘zbekiston Kompartiyasi Toshkent oblast partiya komiteti mas’ul kotibi, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti targ‘ibot va tashviqot bo‘limi mudiri, “Turkiston” gazetasi muharriri, Butunittifoq sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti Millatlar soveti kotibi va O‘zSSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti raisi o‘rinbosari lavozimlarida ishlagan. U “Ittihod va taraqqiy” tashkilotining Sirdaryo oblast qo‘mitasi a’zosi bo‘lgan. 1937-yil 3-avgustda Toshkentda qamoqqa olingan va Moskvada 1938-yil 27-aprelda bo‘lgan sud qaroriga ko‘ra otib tashlangan. Vafotidan so‘ng oqlangan.

Zahiriddin A’lam Qosimov – 1861-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Eski usuldagi maktab va madrasada tahsil olgan. Islom huquqshunosi bo‘lgan. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida din arbobi sifatida faol qatnashgan. Turkiston muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlagan. “Mu’inul islom” (“Islom ko‘makchisi”), “Sho‘royi islom” uyushmalari a’zosi, 1918-1919-yillarda “Xaloyiq”, “Ravnaq ul-Islom” nashrlari muharriri, “Milliy ittihod”, “Ittihodi islom”, “Milliy istiqlol” tashkilotlari a’zosi bo‘lgan. 1922-yilda “Nashri maorif” va “Mahkamayi sha’riya” jamiyatlarining nashrida bosh muharrirlik qilgan. 1923–1936-yillarda Turkiston, O‘zbekiston diniy nazoratida xodim lavozimida ishlagan. 1923-yilda Ufa shahridan Qur’oni Karimning “Hazrati Usmon mus’hafi”ni olib kelish delegatsiyasiga bosh bo‘lgan. 1936-yil 26-iyulda O‘zSSR NKVD davlat xavfsizligi boshqarmasi hisob arxiv bo‘limi boshlig‘i, davlat xavfsizligi kichik leytenanti Yakovlev O‘zSSR NKVD lagerlar, mehnat posyolkalari va qamoqxonalar bo‘limi boshlig‘i Shishmarevga yozgan xatida bitilgan ma’lumotlarga ko‘ra, qahramonimiz O‘zSSR Oliy sudi maxsus kollegiyasi qarori bilan 1936-yil 3-iyunda 8 yil qamoq jazosiga tortilgan. Mazkur xatda Yakovlev jazoni O‘rta Osiyo lagerining Norindagi bo‘limida o‘tayotgan Zahiriddin A’lam Qosimovni 1936-yil 17-sentyabr kuni O‘zSSR NKVD komendanti, davlat xavfsizligi katta leytenanti Shishkindan Toshkent qamoqxonasiga keltirishni so‘ragan. Zahiriddin A’lamni 10–12 kishi saqlanayotgan umumiy kameraga joylashtirishni va uni Ubaydulla To‘raxo‘jayev bilan bir kameraga qo‘ymaslikni tayinlagan. 1936-yil aksilinqilobchilikda ayblanib qamoqqa olingan Zahiriddin A’lamning qatag‘on qilinishi bilan bog‘liq hujjatlar Ittifoq davlat xavfsizlik xizmati arxivida saqlanmoqda.

Ismoiljon Alimov – 1900-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Savdogar oilasidan. Qamoqqa olingunga qadar Andijon rayoni Sho‘ro qishloq soveti Stalin nomidagi kolxozda hisobchi bo‘lib hayot kechirgan. 1937-yil 26-sentyabrda O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Andijon sektori tomonidan o‘z oldiga qurolli yo‘l bilan sovet hokimiyatini ag‘darish vazifasini qo‘ygan “Milliy ittihod” tashkilotining ishtirokchisi sifatida hibsga olingan.


Ish bo‘yicha tergovda Ismoiljon Alimov 1919-yili “Milliy ittihod” millatchi tashkilotga a’zo bo‘lib kirgan. Shu tashkilotning topshirig‘i bilan Mirza Tog‘a qo‘rboshining bosmachilar to‘dasida ishtirok etganlikda, aksilinqilobiy yig‘inlarda qatnashganlikda ayblangan. Unga bildirilgan ayblovni tan olmagan. Vali Shokirov, G‘oyib Toshmatov, Yusufjon Qodirovning ko‘rsatmalari bilan fosh etilgan. Ish bo‘yicha Akbarali Ashurov, Burxon Mashrabiy bilan yuzlashtirilib jinoiy aybi bo‘yniga qo‘yilib, 1937-yil 13-noyabrda O‘zSSR NKVD huzuridagi “uchlik” qarori bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazoni Sibirdagi Kolim rayonida o‘tagan. Jazo muddati 1947-yili 29-sentabrida tugashi munosabati bilan qamoqdan ozod qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor
Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

MUHAMMAD YUSUF TAVALLUDINING 70 YILLIGI

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevraldagi “Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilligini o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishiga ko‘ra, respublikamizda shoir tavallud topgan kun keng nishonlanmoqda. Poytaxtimizdagi “Turkiston” san’at saroyida bo‘lib o‘tgan xotira kechasida ham davlat va jamoat arboblari, adabiyotshunos olimlar, shoir-u yozuvchilar, she’riyat muhiblari jam bo‘lishdi.




“Ulug‘imsan, Vatanim...”

Tadbirga kelganlar dastlab saroyning bayramona bezatilgan foyesida Muhammad Yusufning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan suratlar hamda kitoblar ko‘rgazmasi bilan tanishdi.

Tadbirning tantanali qismi boshlanishida O‘zbekiston Kinematografiya agentligi ijodkorlari tomonidan suratga olingan hujjatli film va “Biz baxtli bo‘lamiz...”, “O‘zbekiston” she’rlari shoirlarning o‘zi o‘qigan videolavhasi namoyish etildi. Ekranda ulug‘ shoirlarimiz Erkin Vohidov va Abdulla Oripovning suratlari namoyon bo‘lib, ularning Muhammad Yusuf haqidagi fikrlari o‘qib eshittirildi.

Shundan so‘ng sahnaga taklif etilgan mehmonlar atoqli shoirning o‘zbek adabiyoti va she’riyatida tutgan o‘rni, insoniy fazilatlari, haqida so‘zladi.

Tadbirga bag‘ishlangan badiiy qismda taniqli va yosh xonandalar ijrosida Muhammad Yusuf she’rlari bilan aytiladigan qo‘shiqlar yangradi. Konsert xotimasida O‘zbekiston xalq artisti Sevara Nazarxon ijrosida “Vatanim” qo‘shig‘i yangraganda butun zal oyoqqa qalqdi. Yig‘ilganlar qo‘shiqni xonanda bilan birgalikda kuyladi. Bunday ajoyib, ta’sirchan xotima Muhammad Yusuf shaxsiga va ijodiga ehtiromning ifodasidir.



Ibrohim G‘AFUROV, O‘zbekiston Qahramoni:

– Muhammad Yusufning she’rlari yangrashi bilan hammaning yuragiga xuddi o‘z she’riday, o‘z yaqin do‘stining, qadrdonining, tug‘ishganining she’riday yetib borardi. Shu tobda mening xayolimga kelib turibdiki, go‘yo u o‘ziga bag‘ishlangan tabarruk anjumanlarda qatnashishni istaydi, siz, biz bilan yonma-yon o‘tirgisi keladi, u haqdagi so‘zlarimizni, she’rlarini qanday o‘qiyotganimizni, nasllarga qanday yetkazayotganimizni eshitgisi keladi. U hammamiz uchun shunday yaqin inson edi.

Aslida ham Muhammad Yusuf o‘zini hammaga yaqin olardi, odamlarni aka-ukasiday, opa-singlisiday ko‘rardi. U shunday go‘zal bir satrlar yozgandi: “Sen o‘choq oldida chaqqan gugurtning uchida lovullab tursa yuragim...” Qarang, qanday ajoyib, betakror satrlar. Xayolimda goho shunday tuyuladi: sportchilarimizning sha’n-u shavkati, zafarlari, jahon arenalarida qozonayotgan g‘alabalarini ko‘rib, shundan ko‘nglimiz o‘sib, o‘tkir isfaxon qilichlarining jaranglari yangrab turgani kabi shoirning har bir satri, har bir qofiyasi, har bir jumlasi hech qachon sinmaydigan o‘zbekning qilichiday sado berayotgandek...




Muslimbek YO‘LDOSHEV, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi:

– Muhammad Yusuf, avvalo, kamtarin inson, mehribon do‘st edi. Shaxsan menga yaqinlarim, ustozlarim qilmagan yaxshiliklarni qilgandi. Hamisha bu insonni o‘zim uchun ustoz, deb bilganman.

Shoir bilan “Toshkent oqshomi” gazetasida ishlab yurgan paytlarida tanishganman. O‘shanda, 20-21 yoshlarda edim. Pushkinning bir nechta she’rini tarjima qilib, tahririyatga olib bordim. Meni Muhammadjon Yusupovga ro‘para qilishdi. Tarjimalarni o‘qib ko‘rib, “O‘zingiz tarjima qilganmisiz?” deb so‘radi. “Ha”, javobini eshitgach, “bittasini berishimiz mumkin, qolganlarini boshqa shoirlar tarjima qilishgan”, dedi. Keyin o‘zimning ham she’r yozish-yozmasligimni so‘radi. “Ha, yozaman”, dedim va bir nechta qoralamalarimni ko‘rsatdim, suhbatlashdik, maslahatlar berdi. Shu-shu qadrdonlashib ketdik. Taniqli bo‘lib ketganidan so‘ng ham ko‘plab tadbirlarda, safarlarda birga bo‘ldik. “Siz meni taniysiz” deb nomlangan birinchi kitobimning tashabbuskori ham Muhammad Yusuf bo‘lgan.

Muhammad Yusuf odamlardagi iqtidorni qadrlar, qo‘lidan kelgan yordamini ayamasdi. Odamgarchiligi zo‘r edi. Akam vafot etganlarida ma’rakalariga aytdim. Biroq Qoraqalpog‘iston safariga ketgan ekan. Men esa kelmaganiga o‘zimcha xafa bo‘ldim. Ertasiga telefonim jiringlab qoldi va tanish bir ovoz ma’yus ohangda “Muhammad akangiz Qoraqalpog‘istonda o‘tib qoldilar”, dedi. Ustimdan muzdek suv ag‘darilgandek bo‘ldi. Men eng yaqin odamlarimning yana bittasini – qadrdon insonim, akamni yo‘qotib qo‘ygandim. Xalqimiz esa samimiy, dilkash, betakror shoiridan ayrilgandi.



Sirojiddin SAYYID, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Xalq shoiri:

– Muhtaram Prezidentimiz adabiyotimizga, yozuvchi va shoirlar ijodiga hamisha hurmat bilan yondashib kelmoqdalar. Aynan shu ma’noda “Adabiyot – xalqning yuragi” der ekanlar, adabiyot elimizning, yurtimizning dil-u joniga singishini nazarda tutganlar. Ayni kunlarda O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning 70 yilligi keng miqyosda nishonlanayotgani ham ana shu e’tibor va e’tirofning yorqin namunasidir.

Muhammad Yusuf she’riyati, avvalo, Vatan sevgisini, Vatanga muhabbatni o‘zida mujassam etgani bilan qadrli. Shoir she’riyatining ohangdorligi, jozibasi o‘zgacha. Shuning uchun ham shoir tavalludining 70 yilligi yurtimizda she’riyat, adabiyot, ma’rifat bayrami sifatida keng nishonlanmoqda. “Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida” deb nomlangan kitobning chop etilishi shoir tavalludining qutlug‘ sanasiga munosib tuhfa bo‘ldi.

Biz “Toshkent oqshomi” gazetasida Muhammadjon bilan birga ishlaganmiz. Bu gazetada Muhammad “Maqsad Yaxshiyev” nomi bilan she’riy luqmalar chiqarardi. O‘sha paytlarda ikkimiz ham faqat oq ko‘ylagimizni kiyib yurardik. Navbatchi bo‘lib qolgan, yomg‘irli kunlardan birida, menga qarab turib “Sirojiddin, bu ko‘ylakning tagidan qovurg‘alaringiz ko‘rinib turibdi-ku”, degandi. Shunda men ham unga javoban “Sizning ko‘ylagingiz ostidan ham qovurg‘alaringiz, yuragingiz ko‘rinib turibdi”, degandim. Keyinchalik bu kabi tashbehlar she’rlarga tushdi.

Muhammadjon keyinchalik katta shoir bo‘lib elga tanildi. Ayni paytlarda turli go‘shalarda shoirning xotira kechalari o‘tkazilyapti. Muhammad Yusuf o‘zini to‘kib, sochib yashab o‘tgan ijodkor edi. Uning she’rlari hamon xizmatda. Shoir yaratgan juda katta bir she’riyat bugun ham Vatanni, adabiyotni, el-yurtimizni ulug‘lash, ayniqsa, yoshlarimizni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lida xizmat qilmoqda.



Nazira as-SALOM, shoirning rafiqasi:

– Bugun barcha oila a’zolarimiz, uchun nihoyatda baxtli kun bo‘ldi. Shoir Muhammad Yusufning 70 yilligiga bag‘ishlangan xotira kechalari ko‘tarinki ruhda o‘tayotir. Shunisi e’tiborliki, har yili 26-apreldan boshlab muxlislarning, she’riyat ixlosmandlarining xohish-istagi, tashabbusi bilan shoirning tavallud kuniga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkaziladi. Bu Muhammad Yusuf shaxsiga, uning ijodiga munosabat, hurmat, e’tibordan dalolat. 23 yildan buyon bu an’ana to‘xtagani yo‘q.

Fursatdan foydalanib, yurtimizda Muhammad Yusufga ko‘rsatilayotgan ehtirom uchun Prezidentimizga, hukumatimizga, xalqimizga chin dildan minnatdorlik bildiraman. Bu kabi tadbirlar Yurtboshimiz tomonidan adabiyotga, adiblarga berilayotgan katta e’tiborning yorqin namunasidir.

Gulchehra UMAROVA yozib oldi.

Muhammad YUSUF,
O‘zbekiston xalq shoiri

QORA QUYOSH

Dostondan parcha

* * *

...Soqovni qamashdi,
Soqov “dushman”ni,
Siyosiy savodsiz,
Anqov dushmanni...

Qamashdi,
Bir kunda,
Paysalga solmay.
Aybi aniq edi,
Aybi ma’lum edi,
U dohiy otini
To‘g‘ri aytolmay,
Hammaning oldida
“Ishtalin” dedi!

Soqchiga mo‘ltirar
Soqov,
Qaltirar,
O‘ldirishar endi,
Uni o‘ldirar.
Qoldi uy,
Qoldi – g‘urbatxonasi.
G‘urbatxonasida –
Qari onasi.

Yana bir zot ketdi,
Shunday qilib –
Soqovning boshiga
Yetdi o‘z tili...
O‘rmonda otishdi,
Qor edi qalin.
Yiqildi.
Hayqirib,
Yashash-shin Ishta-lin!

Soqovni otishdi,
Anqovligi uchun.
To‘g‘rirog‘i –
Tug‘ma
Soqovligi uchun.
Qirq yil bo‘ldi bunga.
Ellik yil bo‘ldi-yov.
Mana endi,
Soqovning onasi –
Haqiqiy soqov!

Soqov duduq edi
Munday olganda.
Tillashsa bo‘lardi
O‘lmay qolganda

* * *

O‘ttiz yettinchi yil kashfi sizga mana –
Erkaklarga alohida qamoqxona,
Ayollarga alohida qamoqxona,
Bolalarga alohida qamoqxona...

O‘ttiz yettinchi yil kashfi bular bari –
Ko‘rinmas-u dahshat solib sharpalari,
Kelsa – yaqin kelmay, ketsa – ketmay nari,
Izg‘ib yurar Lavrentiyning laychalari.

Bu o‘lkada endi norg‘ul yigitlar yo‘q,
Boyqushlar bor, kalxatlar bor – burgutlar yo‘q,
Ne-ne Sulaymonlar, Abdulhamidlar yo‘q,
Qaytarmikin? Qaytmog‘iga umidlar yo‘q...

Bedarak yo‘qoldi qancha odam, esiz,
So‘roqlarda o‘ldi qancha odam, esiz,
Qiynoqlarda o‘ldi qancha odam, esiz,
Sirtmoqlarda qoldi qancha odam, esiz...

* * *

Qisqagina umr ko‘rib,
uzoq yashab kelayotgan zotlarga qarang...
Ahmad Yugnakiy

Tushimga kiradi Qodiriy bobom,
Bemador, bemajol, behol, beorom.
Egniga eski bir to‘n kiyib olgan,
(Shineldir balki u, kimdandir qolgan).

O‘sha to‘n egnida poxol ham borday,
Bobomning yuzlari oqargan qorday.
Yo‘q, yuzi somonga o‘xshaydi uning,
Charaqlab turguvchi ko‘zi to‘la mung...

Tushimga kiradi Qodiriy bobom:
– Tur, – deydi, – muncha ko‘p uxlading, bolam.
Boq, bu dam aylanib jo‘xorizoring,
O‘rog‘in qayraydi onaizoring.

U o‘rib bo‘lguncha rizq-u zaringni,
O‘ynatib tur chiqib, ukalaringni.
Va mening salomim ayt, – der ularga –
Bobosin sog‘ingan musichalarga...

Tushimga kiradi Abdullo bobom,
Oh oltin bobom-a, voh tillo bobom.
Qaro yer qa’rida qon yig‘lab qolgan
Akmal Ikrom bobom, Fayzullo bobom!

II

O‘lgan o‘ldi-ketdi.
Hech kim qaytmaydi.
Nega?
Nima uchun?
Bu ham muammo.
Tarix soqov kampir,
Dardin aytmaydi,
Aytolmas,
Unutib ham bo‘lmas ammo.

Mana,
Qodiriyni qilishar so‘roq:
“O‘tgan kunlar” degan she’r siznikimi?
– Ha.
Ammo u she’r emas...
– Jim bo‘ling, axir.
She’rmi yo boshqami, avtori siz-da.
Tamom.
Boshqa gapga qolmaydi hojat.

Tergovchi – payg‘ambar,
Tergovchi – xudo.
Temir zotdan kelgan buyruq – ijozat,
O‘zbek yana bitta o‘g‘lidan judo.

Aybi shuki...
Aybi...
Kim bilsin buni,
Balki, juda noyob iste’dodidir.
Otishdimikin yo osishdi uni?
Balki, hukm ijrochisi jodidir.

Jodi deganlarin bilishmas yoshlar,
Bilmagani ma’qul bundan keyin ham.
Jodi orasiga tushganda boshlar
Odam...

Ko‘zimga yosh to‘lar mana shu yerda,
Qo‘ynimga tosh to‘lar mana shu yerda.
Ko‘zimga tor bo‘lib qoladi olam,
Oh, oltin bobom-a, voh tillo bobom...
O‘tgan kuning qursin, Abdullo bobom!

* * *

– Otang qani, bolam-ov?
– Otam Sibirga ketgan.
– Onang qani, bolam-ov?
– Onam ham birga ketgan...

– Akang qani, bolam-ov?
– U dunyoda uxlaydir.
– Ukang qani, bolam-ov?
– Ko‘krak so‘rab yig‘laydir...

– Singling qani, bolam-ov?
– Singlim yotar chalajon.
– O‘g‘lim bo‘lgin, bolam-ov,
– Noniz bormi, onajon?!

– Ukamni ne qilamiz?
– Echki suti beramiz.
– Singlimni ne qilamiz?
– Tutmayiz terib beramiz...

– Cholingiz qayda, enajon?
– Cholim Sibirga ketgan.
– O‘g‘lingiz qayda, enajon?
– O‘g‘lim ham birga ketgan.

– Enajonim, enam-ov,
Endi nima qilamiz?
– Enang o‘lsin bolam-ov,
Bir kunimiz ko‘ramiz!

* * *

Tushimga kiradi Qodiriy bobom:
“Bolam, oqibating yo‘q ekan, bolam...”

“Bo‘lsa agar mening go‘rimni top”, der,
“Kelib ochiq qolgan ko‘zimni yop”, der.

“Hammamizga qabr bir joydan tegdi –
Bari bobolaring yonimda”, deydi.

Qabrlar qabrga birlashib ketgan,
Qo‘llar bo‘yinlarga chirmashib ketgan,
Bamisli shoxdan duv to‘kilgan bodom –
Yotar bepoyon maydon to‘la odam...

Rutubatli Shimol o‘rmonlarida
Qayinlar ho‘ngrab quyoshni uyg‘otar.
Qarang, Cho‘lponingiz so‘nggi makonida
Beqasam choponin yopinib yotar.

Yotar alpqomatli bahodirlar qator,
Akmallar,
Qodirlar,
Shokirlar yotar,
Yotar Fayzullolar,
Yotar Ahmadlar,
Xudo rahmat qilgur, xudo rahmatlar...

Ularning sanog‘i yulduzdan ham ko‘p,
Yurtim, dilbandingdir har giyoh, har cho‘p,
Fidolaring bo‘lgan farzandlaringdir,
Nomdor-u nomsizin xoki poyin o‘p!

1988-yil.



AFG‘ONISTON NAVOIYSHUNOSLIGI

yoki 1001 bino – Navoiyning niyati

Boshlanishi 1-sahifada.



Azizullah ARAL,
afg‘onistonlik
tadqiqotchi

Adib tug‘ilib o‘sgan zaminda u haqidagi folklor namunalari, asarlarining nashri, badiiy ijoddagi vorislari, umuman, Afg‘oniston navoiyshunosligini tadqiq etish masalasi sohada muhim vazifa hisoblanadi.

Alisher Navoiy nafaqat ulug‘ shoir va taniqli davlat arbobi, balki asrining o‘ziga xos muhandisi, inshootlar qurilishining katta homiysi sifatida ham ma’lum-u mashhur edi. 1480-yillarda Navoiy o‘zining hisobidan Hirot va mamlakatning turli shaharlarida bir necha madrasa, rabot, masjid, xonaqoh, hammom va ko‘priklar qurdiradi. U xayriya inshootlari qurishga shu qadar berilganki, Afg‘onistondagi o‘zbeklar orasida “Alisher Navoiy Allohning 1001 muborak ismiga atab 1001 ta obida bunyod etishni niyat qilgan”, degan gaplar bugunga qadar yetib kelgan. Ayrim fikrlarga ko‘ra, 1001 ta inshoot deganda Navoiy yordami bilan muhtojlarga qurib berilgan uy-joylar ham nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Lekin bunday uy-joylarning nomi ham, ro‘yxati ham bizgacha yetib kelgan emas.

Ko‘pni ko‘rgan ba’zi keksalar, u har to‘rt yilda bir marta keladigan kabisa (sakrash) yilining 366 kuniga teng 366 ta obida qurib, o‘zidan o‘lmas meros qoldirgan, deyishadi. Xalq fikricha, Alisher Navoiyning qo‘li suvga ham, yerga ham, ko‘kka ham yetgan. Suvda quduq, ko‘prik va hovuz, yerda madrasa, masjid, dorush-shifo (kasalxona) qurgan bo‘lsa, ko‘kka teng noyob asarlar yozdi.

“Shoh istilohlari” kitobi muallifi Amin Hiraviy ta’biri bilan aytganda, Navoiy faoliyati asosida “Xurosonning sahro-yu dashtlari va shahr-u qishloqlarida masjidlar, madrasalar, karvonsaroylar, bog‘lar, ziyoratgohlar qurildiki, qalam tili uni tasvirlashga ojizdir”. Bugungi Afg‘oniston va Eron hududida Alisher Navoiy tomonidan jami 370 dan ortiq xayriya inshootlari qurilgani haqida ma’lumotlar bor.

“Vaqfiya” asarida o‘z ixtiyoridagi ulug‘ mutafakkirning mablag‘lari hisobiga qurilgan bir qator obidalar sanab o‘tiladi. Hirotdagi Ixlosiya o‘quv majmuasi, Amir Alisher Navoiy kutubxonasi, Abdurahmon Jomiy maqbarasi, Qirqqiz karvonsaroyi va hammomi, Bobo Kamol Hirot ko‘prigi, Hirot Fanohiya madrasasi, Nishopurdagi Attor maqbarasi, Mashhaddagi Gilosbuloq suv yo‘li, Shoh Qosim qabri, Bandi Turuq, Anvor Turbat jomi, Imom Rizo ziyoratgohi ayvoni, Sangi Bo‘st karvonsaroyi, Tarshiz masjidi, Esfarin raboti, Chinoron raboti, Saraxs masjidi kabi inshootlar shular jumlasidandir. Keyingi vaqtda Saripul g‘isht ko‘prigi, Mozori Sharifdagi Hazrat Ali qadamjosi, Oqina sardobasi, Balhdagi Nahri Shohiy kanali, Andxundagi Bobo Vali hovuzi va boshqa obidalarni ham Alisher Navoiy barpo ettirgani aytilmoqda.

1960-yillardan boshlab bugungi kunga qadar Afg‘onistondagi navoiyshunoslikka mamlakat olimlari o‘ziga xos hissa qo‘shib kelmoqda. Bular qatorida Muhammad Ya’qub Vohidiy Juzjoniy, Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy, Abdulhay Habibiy, Abdulloh Korgar, Abdulloh Ruyin, Said Muhammad Olim Labib, Said Tojuddin Toshqin Bahoiy, Nurulla Oltoy kabilarning nomini qayd etish va mazkur ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin. Bu mamlakat navoiyshunosligining bosh xususiyatlaridan yana biri – mazkur olimlarning eski o‘zbek yozuvi va dariy tili, arab yozuvidan ta’lim va kundalik faoliyatda foydalanish bobida yaqinligidadir. Ya’ni, Navoiy davridan beri davom etib kelayotgan eski o‘zbek tiliga oid matn va so‘zlashuv an’anasining Afg‘onistonda saqlangani bu yurt navoiyshunoslarini Navoiyga, masalan, arab yozuvidagi Navoiy asarlari qo‘lyozmasiga har jihatdan yaqinlashtiradi.

Afg‘onistonda Alisher Navoiyning nashr etilgan asarlari ko‘lami ham juda katta va ular bugungacha sevib mutolaa qilinadi. Muhim bir jihati shuki, alloma shoirimizning Afg‘onistonda nashr bo‘lgan aksar kitoblari muqovasida ehtirom bilan “Amir Nizomiddin Alisher Navoiy” tarzida yozilganini ko‘rish mumkin.

Hazrat Navoiy hayoti va ijodiga oid bir qator tadqiqot ishlari jamlangan kitoblar ham mavjud. Ular o‘zbek va dariy tilida yozilgan. Shuningdek, Afg‘oniston davlatining rasmiy tillaridan biri – pashtuda ham Alisher Navoiyga oid ko‘plab maqolalar yozilganini qayd etish lozim.

Shimoliy Afg‘oniston viloyatlarida mahalliy o‘zbeklar orasida Navoiy davri an’analari hozirga qadar davom etib kelmoqda. U yerda yosh-u qari hamma she’r yozadi yoki yoddan ko‘p she’r biladi. O‘z nutqini she’r bilan bezaydi, fikrini Sharq mumtoz adabiyoti vakilining qarashlari, she’rlaridan parcha keltirish bilan asoslashga o‘rgangan. Chunki Afg‘oniston maktablaridagi ta’lim tizimida, o‘rta asr musulmon Sharqida bo‘lganidek, she’rning o‘rni katta. Shu bois bu yurt shoirlari she’r yozar ekan, Alisher Navoiyga o‘xshashga intiladi. Hazrat she’rlariga nazira bog‘laydi, ergashadi. Buning natijasi o‘laroq, Afg‘onistondagi o‘zbek ziyolilari Navoiyni ko‘p va xo‘b yodlaydi. Mana shunday Navoiy yo‘lidan ketgan shoirlar qatorida Domla Bedil, Muhammad Olim Labib, Mir Muhammad Amin Qurbat, Muhammad Amin Matin Andxo‘yi, Muhammad Yahyo Hafiziy Juzjoniy, Zikrilla Ishonch, G‘ulomsahiy Vakilzoda kabilarni eslash mumkin. Afg‘onistonlik o‘zbek shoirlarining Alisher Navoiy she’rlariga muxammaslari, javoblari va ergashib yozgan she’rlarining o‘zigina to‘plansa, bir necha jildlik kitob bo‘ladi. Umuman olganda, Afg‘onistonda mumtoz adabiyot janri va uslubida she’r yozish an’anasi ancha kuchli.

Afg‘onistondagi Alisher Navoiy qurdirgan obidalar, navoiyshunos olimlar hamda Alisher Navoiy an’analarining davom etib kelishi haqidagi ma’lumotlar ayni sohaning bugungi mutaxassislari qarashlari-da kengayishiga yordam beradi, albatta.

EKSKURSIYA

“ABADIY YASHAMOQ, KULMOQ ISTAYMAN...”

1940-yil. Yaydoq dala. Unda-munda o‘t-o‘lan o‘sib turibdi. Bir erkak va ayol qadamlarini sekinlatib, to‘xtadi.

– Shu yermi? – dedi ayol ko‘zlari quvnab.

– Shu... – dedi erkak chuqur nafas olib chiqargach.

Ayol bo‘m-bo‘sh yerga havas bilan tikilib, shivirladi: “Bizniki! O‘zimizniki! Endi ijara-ma-ijara sarson yurmaymiz!”



Rostdan ham, uch ko‘chish – bir yong‘inga teng, degan gap bor. Bizgacha yetib kelgan bebaho qo‘lyozmalar qancha “yong‘in” ko‘rmadi deysiz?! Salobatli binolarning minbarida og‘iz ko‘pirtirib “Qo‘lyozmalar yonmaydi!” deyish oson... Lekin bu bir tomondan juda to‘g‘ri gap. Yoningda ijodingni sendan, seni ijodingdan ko‘proq sevib, ardoqlaguvchi umr yo‘ldoshing bo‘lsa, qo‘lyozmalaring Nuh to‘fonidan ham omon qolishi tayin.

Xullas, er-xotin shu yilning o‘zidayoq uy qurishga kirishib ketdi. Bu yog‘ini so‘rasangiz, yo‘qchilik. Hali-zamon urush boshlanadigan. Hatto alifdekkina mix o‘lgur ham qahat. Kunduzi chiroq yoqib topilgani ham avval ishlatilgan mix. Hechqisi yo‘q. Hunar bilan mehnat omon bo‘lsin... Mana, nafis lirikaga yo‘g‘rilgan she’rlar bitgan, Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romanini mahorat bilan tarjima qilgan, “Baxtigul va Sog‘indiq”, “Qahramon qiz”, “Gulnoz”, “Kamonchi” singari dostonlar yozgan, “Navoiy” romanining dastlabki qoralamalarini qog‘ozga tushirgan barmoqlar zanglagan va qing‘ir-qiyshiq mixlarni rostlamoqda. Ularga bir-biridan inja kartinalar yaratgan, faqat mo‘yqalam va moybo‘yoqqa o‘rgangan ingichka barmoqlar yordamlashmoqda. Bu qo‘llar uyning poydevoridan tomigacha bir-bir tegib o‘tdi. Eh-he, salqin kuzlarda loylarga botgani-chi? Ikkovlon iniga xas tashigan qushlardek g‘isht bo‘ladimi, taxta bo‘ladimi, ishqilib, to‘rtta devorni tiklashga yaraydigan qurilish ashyolarini shu sahnga to‘pladi. Bu uyga ijodkorlar oilasi 1940-yilning 30-dekabrida ko‘chib o‘tdi.

Alqissa, hozirgi Oybek uy muzeyi ana shunday barpo bo‘ldi.

Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek hamda Zarifa Saidnosirovaning farzandlari – Omonbek, Bekjon, Gulrang, Suyunbek shu uyda kamolga yetdi. Oilaning yaxshi-yomon kunlariga guvoh bo‘lgan mazkur xonadon adib tavalludining 75 yilligi munosabati bilan 1980-yilda uy-muzeyga aylantirilgan. Avvalo, Zarifa Saidnosirovaning himmati va jasoratiga tahsin aytmoq lozim.

Birinchidan, qatag‘on davrlarida ham, og‘ir xastalikda ham, to‘qchilik va yo‘qchilikda ham Oybekni-da, o‘z ijodini-da tashlab qo‘ymadi. Turmush o‘rtog‘ining qo‘lyozmalari, kitoblari, tarjimalari qatorida otasi – mashhur ma’rifatparvar jadid, tadbirkor Saidnosir Mirjalilovga oid buyumlarni, shuningdek, o‘zi yaratgan kartinalarning bizgacha yetib kelishi uchun jon kuydirdi.

Endi muhtaram o‘quvchini yuqorida ta’riflaganimiz – muzeyga taklif etsak.

Darvozadan kirishingiz bilanoq ikki qavatli bino ko‘zga tashlanadi. Yo‘q, bu bino keyinchalik qurilgan. Yuqorida tasvirlangan uy esa chap tarafda. U besh xonadan iborat. 10 mingdan ortiq eksponatga ega. Bu qadimiy uyni har yili 13 mingdan ziyod kishi ko‘rgani keladi.

Naqshinkor eshikdan mo‘jaz ayvonchaga kiramiz. Marhamat. Birinchi xonani “G‘aroyib ussig‘ar” desak ham bo‘ladi. Chunki unda adibning bolalik va yoshlik davriga oid materiallar jamlangan. Suratlarga qararkansiz, beixtiyor “Bolalik xotiralarim” yodingizga tushadi. Ro‘parangizda rassom Boris Brinskix chizgan surat shoirning bolaligi o‘tgan Govkush mahallasi haqida so‘zlagan bo‘ladi. “Bola Alisher” qissasini bitgan yozuvchining bolaligidan parcha ko‘rishni istaganlar devordagi suratga boqsin. Uning yonida akasi Isomuhammad va singlisi Shafoatning 60-yillardagi suratlari... Ma’lumki, Oybek “Namuna” maktabi, Narimonov nomidagi texnikumda, keyinchalik O‘rta Osiyo davlat universitetining iqtisodiyot fakultetida o‘qigan. O‘ng tomondagi devorda o‘sha paytlarda olingan suratlar osilgan. Bundan tashqari, mazkur qismda shoirning ilk qoralamalaridan nusxalar, o‘smirlik davrida sevib mutolaa qilgan asarlaridan namunalar va ijodiga turtki bergan adiblarning kitoblari joy olgan.

Xo‘sh, Muso Toshmuhammad o‘g‘li nega o‘ziga Oybek taxallusini tanlagan? Shoir bolalik chog‘larida osmonga termilishni juda sevgan, onasiga “oyni olib bering” deya bot-bot iltimos qilgan ekan. Ulg‘ayib, qog‘oz qoralay boshlagan kezlarda Oybek bo‘lishni istagan. Mana endi, bu xona derazasi tokchasidan Oybek taxallusining ramziy ma’nosini ifodalaydigan oy tasviri Toshkent osmoni uzra mo‘ralab turadi.

Muzeyni ko‘zdan kechirarkansiz, ayrim kitoblarning bir cheti yirtilgan, ta’bir joiz bo‘lsa, chaynalganiga guvoh bo‘lasiz. Sizningcha, bu kimning ishi? Albatta, Oybek domlaning! Xo‘sh, nega? Adibning rafiqasi “Oybegim mening” kitobida turmush o‘rtog‘i bu odatini butun umr tashlay olmaganini yozgan. Sevimli kitoblarini qayta-qayta mutolaa qilgan chog‘lari beixtiyor sahifa chetlarini tishlab olarkan-u, uzoq o‘yga tolarkan... Kimdir Oybek haqida kino olsa, e’tiborda tutishi lozim bo‘lgan muhim detal bu.

Ikkinchi xonaga o‘tamiz. Bu xonada sevimli adibimiz qizg‘in ijodga sho‘ng‘igan, o‘nga yaqin doston yozgan, tarjimalar bilan jiddiy shug‘ullangan. Xonaga kirib, 1930–1940-yillar haqida hikoya qiluvchi suratlar va hujjatlarni ko‘zdan kechirarkansiz, dilingizni allaqanday hadik qoplab olishi tabiiy... Tasavvur qiling, butun olamni unutib, qog‘ozga muk tushib, yozyapsiz va yaratilajak asar qahramonlari, poetik tuyg‘ular, olamshumul fikr-mulohazalar boshingizda, ruhingizda, butun tanangizda g‘ujg‘on o‘ynamoqda. Bunday paytda “tiq” etgan ovoz ham miyaning qoq o‘rtasiga bolta urgandek bo‘ladi. Borlig‘ingizni qoplab olgan olamdan tashqarida tahlikali vaziyat yetilgan. Kecha ustoz deb etagidan tutgan insoningiz (Cho‘lpon) otuvga hukm etilgan. Manaman degan yozuvchi-shoirlar qattol tuzumning dushmani sifatida yo‘q qilinmoqda va tayinki, ilm-u ma’rifat, zehn-u zakovat, mehr-u muhabbatga begona bo‘lgan ajalning yugurdaklari halizamon mana shu eshikni ham taqillatib qolishi mumkin... Taassufki, shunday bo‘ldi ham. “Taq-taq-taq...”

Yozuvchilar uyushmasi a’zoligidan chiqarilgan, Til va adabiyot institutida ishdan bo‘shatilgan, gazeta va jurnallar esa asarlarini bosmay qo‘ygan bundayroq adib ijodiy faoliyatini yig‘ishtirib qo‘yishi, bola-chaqa boqish ilinjida o‘zini har bozorga solishi, kerak bo‘lsa, yaqin do‘stlari, safdoshlarini sotib, tirikchilik qilishi mumkin edi. Ammo Oybek emas! U hammasiga qo‘l siltab, “Qutlug‘ qon”ni boshlab yubordi. Mana bu shishali stendda shu romanning ilk nashri va turli tillarga tarjima qilingan nusxalari turibdi. Qaysi tillar ekan, demoqchimisiz? Ozarbayjon, uyg‘ur, slovak, chex va tabiiyki ruscha...



Keyin urush boshlandi. Endi uyli-joyli bo‘lgan, bu yog‘iga hech nimaga chalg‘imay, faqat ijod qilaman degan yozuvchi 1942-yili san’atkorlar brigadasi tarkibida frontga jo‘natildi. Jangda toliqqan askarlarni ruhlantirish uchun aytilgan qo‘shiqlar, she’rlar, raqslar bitgach, hamma ortga qaytdi. Oybekdan tashqari...

Bir she’rida shunday yozadi:

Qoshlar, kipriklar qirov –
Yuraman hushsiz, hayron.
Qornim och, esga kelmas
Xaltamdagi g‘ishtdek non…

G‘ishtdek non... G‘ishtdek non... Ha-ya! Buxanka! Urush o‘chog‘iga yo‘l olarkan, “xalta”sidagi nonni bitta bloknotga almashadi. Unga olti oy ko‘rgan, his qilgan, bilganlarini yozadi. Bu qoralamalar oradan yigirma ikki yil o‘tgach, “Front bo‘ylab” nomli kitobga aylanadi. Bunisiga nima deysiz? Hov, ana o‘sha kitob!

Qayoqqa shoshyapsiz? Narigi xonaga? To‘xtang, avval mana bu rasmlarga boqing. Misr, O‘rta yer dengizi, Pokiston, Angliyada olingan suratlar. Urushdan keyingi safarlardan esdaliklar. Bular – farzandlari, oilasi, yaqinlariga yo‘llagan telegrammalari... Endi ketdik, keyingi bekat – “Alisher Navoiy”!

Uchinchi xonadagi eksponatlarning aksar qismi ulug‘ mutafakkir, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy bilan bog‘liq. Bu yerga “Navoiy” romanining qo‘lyozma, ilk nashri hamda boshqa tillardagi tarjimalari joylangan. Roman qozoq, turkman, ozarbayjon, tojik, arab, ingliz, ukrain, nemis, rus, belorus, fors, eston, latish va hatto (!) xitoy tillariga tarjima qilingan. Ulug‘ adibning shaxsi va ijodiga bag‘ishlangan asar Oybek domla frontga jo‘nab ketishidan biroz avval yakunlangan. Ma’lum sabablarga ko‘ra, o‘sha yillarda uncha ommalashmaydi. Keyinroq “Mahmud Torobiy” tarixiy dramasi yozildi. Undan ham bitta nusxa qo‘yilgan. 1943-yili O‘zbekistonda Fanlar akademiyasi tashkil etilgach, Oybek, G‘afur G‘ulom uning haqiqiy a’zosi etib saylanadi. Adib 1951-yilgacha akademiyaning gumanitar bo‘limi boshlig‘i bo‘lib ishlaydi. Urush tugagach, shoir O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi sifatida ish boshlaydi.

Navbatdagi stendning nomi o‘zgacha: “Oybekka qarshi hujum”. Ochig‘i, bu haqida yozgim yo‘q. Kimga qiziq bo‘lsa, kelib ko‘rsin. Faqat bir hujjat taskin beradi. Oyna ortida turgan kechirim xati... Shoirning shogirdidan. Buni ham muzeyga kelib, xatni o‘qiganlar aynan kim yozganini bilib oladi.

Ma’lumki, Oybek domla talabalik yillaridayoq og‘ir xastalikka chalinadi. Keyinchalik turli tergovlar, tuhmatlar, ruhiy zarbalar sog‘lig‘ining yanada yomonlashishiga sabab bo‘ladi. “Qahhorni qand kasal, Oybekni soqov qilib qo‘yganlar ham laganbardorlar...”

Bir necha bor boshqa davlatlarga davolanishga borgan adibni o‘z yurtida o‘ldiga chiqarganlar ham ko‘p bo‘lgan. Eng qizig‘i, tirikligidayoq ta’ziya izhor etgani hovlisiga kelishgan. Shu paytlarda Oybek gapirolmay qoladi. Davolanish uchun Xitoyga jo‘naydi. Bu zalda o‘sha safarda yozilgan xotiralar ham saqlanadi.

Navbatdagi zal “Oybek abadiyati” deb nomlangan. Bu yerda adibning o‘zbek va rus tillaridagi ko‘p jildlik asarlari nashri, shuningdek, ayrim asarlarining xorijda bosilgan nusxalari, mukofotlari o‘rin olgan. Bundan tashqari, adib surati tushirilgan, misralari bitilgan sopol va chinni buyumlar, mis idishlar, Oybekka bag‘ishlangan badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar ham saqlanadi.

Biroz ichkariroqda esa o‘sha mashhur ijodxona joylashgan. Mana shu xontaxta ustida “Qutlug‘ qon”, “Navoiy” kabi ko‘plab asarlar dunyo yuzini ko‘rgan. Mana bu lo‘labolishlar qanday tabarruk! Yozishdan tolgan adib ularga yonboshlab, shiftga termulib, uzoq o‘y surgan. Siz ham biroz tin olib, ko‘zlarni yumib, devorlar shiviriga quloq tuting-chi? Muborak moziy hidini tuyish uchun to‘yib-to‘yib nafas oling-chi?! Qanday maza! Yashaging keladi! Endi ko‘zingizni oching, qarang: Xastaligi zo‘raygan, gapirishdan, yozishdan qolgan adib, ko‘zlari va imo-ishoralar bilan rafiqasiga nimalardir “demoqda”. Ayol yozmoqda. “Quyosh qoraymas”, “Ulug‘ yo‘l” romanlari, “Nur qidirib”, “Bolalik”, “Bola Alisher” qissalari shu tariqa yozilgan. Ana sizga mehr-u sadoqat!

Xastamen… Fikrga, tuyg‘uga to‘lib,
Oy menga hamqadam sokin yuramen.
Sog‘aysam bir kuni yozamen to‘yib,
Hislarga qalbimni qo‘shib yozamen.
Kechalar yururmen telbaday horib,
Boshimda oy borur, menga hamqadam.
Xayollar uchadi mash’alday yonib,
To‘yib yozajakmen bir kun sog‘aysam…

Bunday kunlar o‘n yetti yil davom etdi. O‘n yetti yil... 1968-yil 1-iyulda Oybek domla vafot etdi.

Bu uy muzeyga aylantirilishida Zarifa Saidnosirovaning xizmatlari katta. Shuningdek, bu manzilda olima umrining so‘nggi yillarida chizgan moybo‘yoq bilan ishlangan tabiat manzaralari ham bor.

Aytgancha, haykal esdan chiqay debdi. Oybek domla o‘zi ekkan daraxtlar soyasida o‘yga cho‘mib turgandek go‘yo. Menimcha, quyidagi she’rni shivirlamoqda:

Nafis chayqaladi bir tup na’matak
Yuksakda, shamolning belanchagida,
Quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o‘shshaygan qoya labida.
Nafis chayqaladi bir tup na’matak
Mayin raqsiga hech qoniqmas ko‘ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun,
So‘nmaydi yuzida yorqin tabassum.
Yanoqlarni tutib oltin bo‘sa-chun,
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!

Xullas, ming marta eshitgandan, bir marta ko‘rgan afzal. Keling, ko‘ring, zavqlaning, xotirlang...

Shahriyor SHAVKAT
Abdumannon MAMATOV olgan suratlar.

TARMOQLARDA NIMA GAP?



“HUKM SOATI YETDI...”

yoxud Mixail Lermontov “Demon”i

Olamda iztirob ko‘p. Har birining o‘z yuki-zalvori bor. Iztirob ichidagi odam hasrat chekayotgan boshqa birovga “Mening dardim senikidan yengilroq”, demaydi. Baxtsizlik qay yo‘sinda kelmasin, o‘z nomi bilan baxtsizlik. Biroq olamda bir qayg‘u borki, unda zamin zulmati mujassamdir. Bu – Iblis qayg‘usi. Mag‘lubiyatlar ichida eng mash’umi kibrning mag‘lubiyati bo‘lsa ajab emas. Kibr nima? O‘z bo‘yidan baland yuksaklikni qabul qila olmaslik.

“Men hammadan a’loman”, degan dardga mubtalolik. Hamma balo shundaki, mutakabbir Iblis odamni Hazrati insonga aylantirishga qodir oliy hislarni, shuurni, poklikni bittada ilg‘aydi. Va chertib-chertib toptaydi. Ko‘p o‘ylayman, odamlarni ortidan ergashtirishga qodir yoki tuyg‘usi-fikri bilan ajralib turgan xoslarning fe’li-xo‘yi va hayotidagi noodatiy qirralarni mamarayimchasiga qarichlash to‘g‘rimikan? Shundog‘am ularning umri beomon to‘lqinlar girdobida kechadi-ku. Kim bilsin, alamzada Iblis ularni qurol qilib Haqqa “haq”ligini isbotlamoqchi bo‘lar, “Xalifa deb yaratganing – odamning ahvolini ko‘r”, deya. Mangu la’natga duchor bu quvg‘indi ruh nayranglaridan har qancha ogoh etilmasin, baribir uning muqomlariga aldanish, alamiga giriftor bo‘lish Odam bolalarining yozug‘i ekan.

Mixail Lermontovning “Demon” poemasi mutolaasiga sho‘ng‘igan o‘quvchi qora qayg‘u – Iblis qayg‘usining mahobatini idrok etadi.

Ne ajabki, “jahon dashti ichra bevatan” tentirab yurgan Iblisning ko‘zi tong pokligi – Tamaraga tushib qoladi?!

Yohu! Iblis qizni payqadi,
O‘sha zamon sezdi hayajon:
Shirin bir kuy go‘yo biyobon –
Dashtday ko‘ngli ichra tarqadi.

Go‘zal xilqat oliy dargohdan quvilgan iblisga mas’ud onlarini, kim edi-yu, kim bo‘lib qolganini eslatdi. Huvillagan ko‘ngliga oniy hayrat – nurni soladi. “Eslab ketib o‘tmishni, yolg‘iz Bir oh tortib, nafas olardi”. O‘tmishini unutmaydi. Unuta olmaydi!

Shunda Iblis eng birinchi bor
Muhabbatning dardini tuydi...
Nola chekib dili zor-u zor,
Ishq o‘tida lovillab kuydi.
Qo‘rqib, jilmoq bo‘ldi bu yerdan...
Qanotini ko‘tarolmadi!
Ajab! Quruq ko‘zidan birdan
Yoshi oqdi... Hech chidolmadi...
O‘sha joyda haliga qadar
Odam yoshi emas, o‘sha yosh,
O‘sha o‘tdek yosh kuydirgan tosh,
Yakka, qora, kuygan tosh yotar...

Garchi ko‘zidan oqqan sho‘r yosh toshni kuydirsa-da, muhabbat – Iblis emas, u Tamara! Chunki muhabbat adashar, xato qilar, gunoh qilar, lekin zulm qilmaydi. Qilsa ham, faqat o‘ziga qiladi, o‘zgaga emas. Muhabbat tugagan joyda shayton muqomi – makr boshlanadi.

Poemada alam, yolg‘izlik, hasad, haddini bilmas g‘urur, beor, darbadar, sarkash ruhning butun dramasi Iblis iztirobida namoyon bo‘lsa, mudom shafqatga muhtoj muhabbatning fojiaviy mohiyati, rang-u raftori Tamara qismatida ko‘rinadi. Tamara, Sonya Marmeladova, Nastasya Filippovna, Karenina, Lara Antipova va Margarita, hatto jinoyatchi Katya Maslovaning ko‘rguligi barkamollikka-soflikka toqati yo‘q Iblisning tantanasidir! Bu mal’un ularni o‘zi uchun zarracha qimmatsiz bo‘lgan cho‘chqaboqar dulseniyalarning oyog‘i ostiga tashlamaguncha tinchimaydi. Yuksaklikning badalini badnomlik bilan to‘latadi. Axir, Pasternak Larani tabiatning eng toza xilqati bo‘lishga munosib ayol deb bekorga kuyunmaydi. Yoki Tolstoy o‘zi yaratgan qahramonga o‘zi mahliyo bo‘lib, Annaga shafqatsiz munosabatda bo‘lganini tan oladi. Lekin bir taskin bor. Yigirma besh yoshli yigitcha idrok etgan buyuk bir shafqat – har holda, falakda o‘lchovlar boshqacha bo‘lsa kerak degan xayolga undaydi. Balki, adabiyot – yer yuzida chumoli kabi g‘imirlab yurgan qadrsiz insonning musibatlariga ko‘kning ko‘zi bilan, ilohiy hamdardlik bilan qarashga da’vatdir.

...Farishta gunohkor jon – Tamarani bag‘riga bosgancha bu dunyodan olib ketardi. Shu on do‘zaxiy ruh paydo bo‘lib, azaliy beorlik bilan “Qiz meniki! Yo‘qol sen!”, deydi. Bu gal osmon elchisi qat’iyat bilan javob beradi:

Yetar shuncha tantana qurding,
Yetar shuncha sen yo‘ldan urding;
Endi hukm soati yetdi,
Parvardigor qat’iy amr etdi!
O‘tdi unga sinov kunlari,
O‘tdi unga azob tunlari,
Yerning foniy kiyimi bilan
Zulm zanjiri yechildi undan.

Nega? Nega zulm zanjiri yechiladi? Axir, u gunoh qildi-ku. Bilaturib shaytonni sevdi. Nega jannatga ketar ekan? Chunki “U qiynaldi, sevdi”. Neki o‘tsa o‘zidan, jonidan o‘tdi. Shuning uchun jannat eshiklari unga ochiq. Bo‘ldi, bas! Sevgan ko‘ngilga, mazlum qalbga hukm o‘qishga shoshmang! Bu tuyg‘uning mudhish oqibatini hech kim ayolning o‘zichalik anglamagan. U bekorga so‘nggi najotni farishtadan izlamaydi, Parvardigor elchisi bag‘riga talpinmaydi. Biroq ayol muhabbati, qurbonligi ham Iblisni mangu tamg‘adan – tavqi la’natdan ozod eta olmadi. U hamon beadoq savollar iskanjasida o‘sha kibr, o‘sha ta’na bilan zamin uzra tentirab yuribdi.

Iqbol QO‘SHSHAYEVA,
Facebook

IBRAT

DUNYONI ASRAB, O‘ZIMIZNI QUTQARAYLIK!



Men Mo‘tabar Xushvaqtova – ekobloger, ekofaolman. “Baxt ulash!” xayriya jamoasining tashkilotchisiman. Ushbu xayriya tashkiloti orqali ko‘plab “tozalik farishtalari”, ya’ni obodonlashtirish faollari bilan suhbatda bo‘lganman. Ularning tabiat bilan uyg‘unligi, atrof-muhitga bo‘lgan e’tibori menda ham ekologiyaga muhabbatni kuchaytirgan.

Aslida ekologiya – insonning hayoti. Ko‘pchilik odamlarning xayoliga ekologiya deganda tabiiy ofatlar va umuman, tabiat bilan bog‘liq salbiy fikrlar keladi. Shu sababli ham ekologiyaga oid kitoblarni o‘qishga, videoroliklarni tomosha qilishga ba’zi insonlarning toqati yetmaydi. Iloji boricha bu so‘zdan uzoqroq yurishga harakat qilishadi. Lekin tabiatni his qilish ham bir san’at hisoblanadi. Odamga ruhiy quvvatni tabiat beradi. U bilan uyg‘un yashashga intilish kerak.



YASHILLIK QISQARMOQDA

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yer yuzidagi 85 foiz kislorodni dengiz va dengiz o‘tlari hosil qiladi. Bizning yurtimizda daraxtlar asosiy kislorod manbasidir. Birgina inson kun davomida “iste’mol qiladigan” kislorodni ishlab chiqarish uchun 8 ta daraxt kerak bo‘lar ekan. Bugun daraxtlarning kamayib borayotganligi esa bizni oldinda katta muammo kutayotganligidan darak beradi. Hozirgi rivojlanish asrida, mashina va zavodlardan chiqayotgan zararli tutunlar ekologiyani zaharlayotgan bir vaqtda bizni daraxtlar va o‘simliklar qutqarishi mumkin. Va har bir inson bu qanchalik muhimligini bilib olishi, o‘zi va avlodlarining kelajagi uchun harakat qilishi kerak.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Mamatqul Hazratqulovning “Agar Toshkentda shu vaqtgacha ekilgan hamma daraxtlar ko‘karganida hozir shaharda qadam bosishga joy qolmagan bo‘lardi”, degan so‘zlari bejiz aytilmagan. Darhaqiqat, yillar davomida shahrimizda juda ko‘plab daraxt ko‘chatlari o‘tqazilgan. Afsuski, natija biz kutgandek bo‘lmadi. Yaxshi niyat bilan yerga qadalgan nihollarning hammasi ham gurkirab o‘sib ketgani yo‘q. Buning bir qancha sabablari bor. Birinchidan, maqsadga erishish uchun nihol ekilayotgan yerning unumdorligi va joylashuv o‘rnini chuqur o‘rganish, mutaxassislar bilan maslahatlashish kerak. Ikkinchidan, yosh nihollarning ko‘karish ehtimoli pastligini ham nazardan qochirmaslik lozim. Bir biolog olim aytgan ekan: “Shahar – istagan joyda nihol ko‘kartiriladigan plantatsiya emas, unga tayyor ko‘chatlarni ekish kerak”. Uchinchidan va eng asosiysi, ekilgan ko‘chatlar ko‘pincha qarovsiz qolishi natijasida quriydi. Menimcha, hokimiyat vakillari bu borada tuproqshunos, iqlimshunos, biolog olimlar bilan bamaslahat, bahamjihat ishlasa natijasi ham yaxshi bo‘lishi mumkin.

Yoz faslida havo keskin isib ketadi va biz jaziramaning taftini qaytarish maqsadida yerga suv sepamiz. Suv ham tejalishi lozim bo‘lgan resurs emasmi? Biz har qanday muammoga oson yechim izlaymiz. Aslida uzoqni ko‘zlasak, o‘simlik va daraxtlar biz uchun eng yaxshi yechim bo‘lishi mumkin. Ular quyosh nurini yutib, issiqni qaytarishda katta foyda beradi. Yer usti qanchalik ochiq, ya’ni usti bo‘sh bo‘lsa shuncha chang hosil qiladi. Aksincha, yer o‘simlik va daraxtlar bilan qoplangan bo‘lsa, u issiq havoni o‘ziga yutadi. Global isishning asosiy sabablaridan biri, daraxtlar va o‘simliklarning kamayib borayotganligidir.

ZAHARLI GAZLARDAN YASHIL ENERGETIKAGACHA

Havoni ifloslantiradigan unsurlar judayam ko‘p. Mashina va zavodlardan tortib, xonadon sharoitidagi issiqxonalardan chiqayotgan zararli gazlar ham shular jumlasiga kiradi. Ular yuqoriga ko‘tarilib, atmosferada alohida qobiqni tashkil qilgan (dron kameralari va kosmosdan olingan tasvirlarda bunga guvoh bo‘lish mumkin), ya’ni bu kabi zaharli gazlar nafas olish qatlamida qoladi. Shu bois odamlar orasida bronxial astma, nafas yo‘li kasalliklari, allergik xastaliklar soni ko‘payib ketgan. Tabiatni asrash o‘z qo‘limizda ekan, avvalo, elektr energiyasini tejaylik, yashil hududlar ko‘paytiraylik, chunki daraxt va o‘simliklar zaharli gazlarni yutadi, ular bizning tabiiy filtrimiz hisoblanadi. Kimyoviy moddalarni yoqib, havoni ifloslantirishdan ham imkon qadar tiyilganimiz ma’qul.

Qayta tiklanuvchi yashil energiyaga o‘tish bilan ko‘plab muammolarni bartaraf qilish mumkin. O‘zbekistonda 2026-yilgacha energetika sohasining 25 foizini aynan mana shunday muqobil energiyaga o‘tkazish rejalashtirilgan. Bu – yiliga 3 milliard kubometr gaz tejalib, atmosferaga ancha kam zararli moddalar chiqishini anglatadi. Qoraqalpog‘iston hududida Markaziy Osiyodagi eng yirik – bir yarim gigavatt quvvatga ega shamol stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan. Ushbu stansiya yiliga 5,3 milliard kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarib, 2 milliondan oshiq fuqaroni elektr energiyasi bilan ta’minlaydi. Bu esa, atmosferaga 2,2 million tonna zararli gaz chiqmaydi, degani. Yashil energetika tabiat uchun foydali, farzandlar kelajagi uchun muhim qadam. Lekin bu infratuzilmani yangilash, modernizatsiya qilish, tizimni unga moslashtirishni talab qiladi. Buning uchun esa katta investitsiya kerak. Hattoki, dunyo tajribasida ham yashil energetika foydali, toza, lekin qimmat manba ekanligi ma’lum. Bizda muqobil energetikaga o‘tish uchun barcha imkoniyatlar mavjud, yaxshi o‘zgarishlar uchun birlashishimiz kerak, xolos.

YERDA HAM, KO‘KDA HAM YO‘QOLMAYDIGAN XATAR

Insoniyat Marsda shaharlar qurib, ko‘chib o‘tishni rejalashtirayotgan, mashinalar haydovchisiz yurayotgan, sun’iy intellekt she’r yozib berayotgan bir vaqtda chiqindi poligonlarining bo‘lishi bu – tabiatga zo‘ravonlikdir.

Shahar aholisi orasida, xonadondan chiqindi poligonigacha bo‘lgan zanjir to‘g‘ri shakllanmagan. Biz ham rivojlangan davlatlardagi kabi noorganik va organik chiqindilarni alohida ajratib saralaganimizda chiqindi poligonlariga hojat qolmas edi. Ulardan chiqayotgan zararli moddalarning atrof-muhitga salbiy ta’siri ham kamayardi. Bu kabi e’tiborsizligimiz tufayli o‘z salomatligimizga o‘zimiz zarar yetkazyapmiz.

Ikki yuz yilda chiriydigan yelim idishlarga noorganik-organik chiqindilarni aralashtirib solamiz va ma’lum vaqt o‘tib o‘sha paket ichidagi zararli suvlar yerga singib, suv hamda tuproq tarkibiga qo‘shiladi. Aholi o‘sha suvdan ichadi, ana shu tuproqda o‘sgan meva-sabzavotlarni iste’mol qiladi.

3-iyul – Xalqaro plastik xaltalardan voz kechish kuni etib belgilangan. Men shu kuni kutilmagan ishga qo‘l urdim. Ya’ni, 250 dona plastik paketlardan o‘zimga libos “tikib”, uni shahar bozorlarida kiyib yurdim. Chunki statistik ma’lumotlarga ko‘ra, har bir inson yiliga 650 mingta paket ishlatar ekan. Mening libosimdagi plastik xaltalar esa bir insonning o‘rtacha 3 oyda ishlatadigan paketlar soniga to‘g‘ri keladi. Bu videokontent orqali odamlar qanchalik ko‘p sellofan paket ishlatayotganini anglatmoqchi bo‘ldim. Ijtimoiy tarmoqlarga joylagan videokontentim ko‘pchilikning e’tiborini tortdi.

Plastik paketlar boshqa chiqindilardan farqli o‘laroq, deyarli chirimaydi. Shuning uchun ham u sayyorani zaharlovchi unsurlardan biri hisoblanadi. Ularni yoqish mumkin emas, chunki yoqilganda uglerod oksidi va zararli konserogenlar atmosferaga ko‘tariladi. Yerga ko‘mish ham oqilona yechim emas. Shunday ekan, do‘konga kirganda ortiqcha paket ishlatmay, ko‘p martalik ekosumkalardan foydalanishga harakat qilishimiz lozim. Bu – bizning va kelajak avlodning salomatligi uchun juda muhim.

EKOTARBIYANING VAQTI KELDI

Ko‘pchilik ota-onalar farzandini tabiatga nisbatan loqayd insonlar sifatida ulg‘aytiradi. Daydi kuchuk yoki mushukka ovqat berish istagida bo‘lgan bolani “kasal yuqtirasan”, “qo‘ling kir bo‘ladi, ushlama”, deb qaytaramiz. Daraxt shoxini sindirayotgan, bog‘da chiroyli ochilib turgan gulni toptayotgan, oyoq ostidagi hasharotlarni ezg‘ilayotgan go‘dakka to‘g‘ri o‘git bermaslik ham kechirilmas xatodir. Bugun siz farzandingizga tabiatni asrashni o‘rgatmasangiz, kelajakda u ham shunday yo‘l tutadi. Bolalar o‘yingohida bir bolakay kapalakni kaftlari orasida g‘ijimlab atrofdagilarga maqtanib yurganiga ko‘zim tushdi. Shu yaqinda o‘tirgan ayollar va uning onasi bu holatga umuman e’tibor qaratishmayotgan edi.

Ichimda bir nima uzilgandek bo‘ldi... Voqeadan ta’sirlanib ijtimoiy tarmoqlardagi sahifamga kapalakning rasmini joyladim va ostiga “Har bir tirik jon biz uchun muhim” deb yozib qo‘ydim. Suratga yozilgan izohlar orasida “Kapalakning odamzodga foydasi yo‘q-ku, bekordan-bekorga atigi bir kun yashamasa kerak”, degan gapni ko‘rib yanada xafa bo‘ldim. Nega biz faqat tabiatdan foyda izlaymiz? Bizga tuxum, sut, go‘sht berayotgan jonivorlarni parvarish qilamiz-u, qolganlarini befoyda sanab, ularga e’tibor bermaymiz. Axir, har bir tirik jon tabiatning bir parchasi emasmi!

Bolalar orasida ekomadaniyat, ekotarbiyani shakllantirishimiz lozim. Bugunning odamlariga ekomuammolar qiziq emasligining sababi ham ularning bolaligida bu borada boshlang‘ich tarbiya bo‘lmagani bilan bog‘liq. Biz kelajak avlodimizga ham buni ravo ko‘rmasligimiz kerak. Aqlini taniyotgan farzandlarimizga hech bo‘lmasa daraxt ekishni, xona gullarini parvarishlashni, elektr energiyasini tejashni o‘rgatsak, o‘zimiz ham shunga e’tiborli bo‘lsak, tabiatga ozgina bo‘lsa-da foyda keltirgan bo‘lamiz. Kelajak avlodga faqat moddiy boyliklarnigina emas, toza havo, yashil hududlarni meros qoldiraylik!

Vasila HABIBULLAYEVA
yozib oldi.

TILBILIM

“BARSETKA”ning o‘zbekchasi nima?

Barsetka tutaman. Qulay idish. Ichiga talay narsani sig‘dirsa bo‘ladi. Hujjat-pujjat, pul-muldan tashqari, kalit-palit, fleshka, hatto kichikroq telefonni ham joylasa bo‘ladi. Aslida bu so‘z italyan tilidan tarqalgan bo‘lib sumkacha ma’nosini bildiradi. Lekin bu matohni o‘zbek tilida qanday atasak bo‘larkin deb o‘ylab yuraman. Hamyon desak, hamyonda faqat pul saqlanadi. Qopchiq desak, kichikroq bo‘lishi kerak. Yaqinda Abdulla Qodiriyni mutolaa qila turib, *xilondon* degan so‘zga duch keldim.



“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni varaqlasam, xayriyat, unda ham bu so‘z bor ekan. Izohi ushmundoq: “*XILONDON. esk. Ichiga soqoltaroq, qayirma pichoq, tishkovlagich kabi buyumlar solib, belboqqa osib yuriladigan charmdan yasalgan kichik sumka.*

“Qo‘lida o‘sha o‘zing ko‘rgan xilondoni, oyog‘ida nag‘malik etik.”

Abdulla Qodiriy. “Kichik asarlar”.

Xullas, xilondon “barsetka”ning o‘zginasi ekan-da. Lekin hozircha bu so‘zning qanday paydo bo‘lgani va ildizi haqida biror ma’lumotni topolmadim.

Eshqobil SHUKUR

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muyassar Ibrohimova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 812
Lotin yozuvidagi adadi – 11 905
Media kuzatuvchilar – 19 021
Buyurtma: G – 1040.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:50
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz